جدید

Tilda, fikrda, ishda birlik!


Jadid

2024-yil
2-fevral
№ 6 (6)

adabiy, ilmiy-ma’rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta

QARDOSHLIK

MADANIY DIPLOMATIYANING YORQIN MUVAFFAQIYATI



Akmal SAIDOV,
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik Palatasi spikerining birinchi o‘rinbosari

Ozarbayjon Respublikasining madaniyat va sport sohasidagi tashabbuslari, madaniy diplomatiyasining muvaffaqiyati xalqaro tadbirlar, madaniy hamkorliklar bilan mustahkamlangan boy tarix va merosga asoslangan. Bu butun dunyoda birdamlik munosabatlari jozibadorligini targ‘ib etish va ziyoli qatlam orasida xalqlararo do‘stlikni rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu ma’noda o‘zbek va ozarbayjon xalqlarini asrlar mobaynida shakllangan mustahkam qardoshlik va birodarlik rishtalari, madaniyat, til, din va urf-odatlarning yaqinligi, ma’naviy qadriyatlar chambarchas bog‘lab turadi.



Ayniqsa, 2023-yilning 24-noyabr sanasida O‘zbekiston va Ozarbayjon davlat rahbarlarining rasmiy uchrashuvida 2024-yilning mamlakatlarimiz o‘rtasidagi ko‘p qirrali munosabatlarni jadal rivojlantirish yili, deb e’lon qilingani hamkorlikning yangi ufqlarini ochib berish barobarida, ikki qardosh millatning bir-biriga yaqinlashuviga mustahkam bir ko‘prik bo‘ldi. 24–26-yanvar kunlari mana shu hamkorlikka yangi qadamlar sifatida Boku shahrida “O‘zbekiston fani va madaniyati kunlari” o‘tkazildi va mamlakatimizdagi taniqli fan, san’at va adabiyot namoyandalarining bir guruhi Ozarbayjonda bo‘lib qaytdi. Tashrifning ilk kuni delegatsiyamizni Ozarbayjon Milliy Majlisi Spikeri Sohiba xonim Gafarova qabul qildi.

Juda go‘zal tarzda tashkil etilgan “O‘zbekiston fani va madaniyati kunlari” davomida dasturda ko‘zda tutilgan tadbirlar doirasida parlamentlararo hamda fan sohasida, yozuvchilar, rassomlar, gazeta, jurnallar o‘rtasida hamkorliklar o‘rnatish, san’at va madaniyat xodimlari bilan yigirmadan oshiq ikki tomonlama uchrashuvlar tashkil etildi.

Jumladan, Bokuning eng diqqatga sazovor maskanlarida to‘rtta katta tadbir uyushtirildi. Haydar Aliyev markazida Madaniy meros bo‘yicha 80 jildlik majmua taqdimoti, Fuzuliy nomidagi Qo‘lyozmalar Institutida “Madaniy merosimiz Ozarbayjon muzeyi va kutubxonalarida” maxsus tomini topshirish va eng hayajonlisi, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan chop etilgan 100 jildlik “Turkiy adabiyot durdonalari” to‘plamining taqdimotlari o‘tkazildi. Boku Davlat universitetida Ozarbayjon ilmiy jamoatchiligi vakillari bilan uchrashuv bo‘lib o‘tdi. Tadbirlarda O‘zbekiston delegatsiyasi bilan birga Ozarbayjon Yozarlar birligining raisi, atoqli yozuvchi Anar Rzayev, uning o‘rinbosari Salim Babullao‘g‘li, shoir, yozuvchi, jurnalistlardan Faxreddin Meydanli, Yashar Qosim, Gulamail Murad va keng jamoatchilik ishtirok etdi.

Ikki mamlakat o‘rtasidagi do‘stona aloqalarni chuqurlashtirishda “O‘zbekiston madaniy merosi jahon to‘plamlarida” loyihasining tutgan o‘rni va bu borada samarali faoliyat ko‘rsatayotgan ozarbayjonlik olimlar va tadqiqotchilarga Butunjahon jamiyati nomidan tashakkurnomalarni topshirdik. Shuningdek, Ozarbayjon va O‘zbekistonda bugungi kunda amalga oshirilayotgan yuksak ma’naviy va madaniy islohotlar, ulug‘ ishlar, shuningdek, kundan kunga mustahkamlanib borayotgan adabiy aloqalar haqida batafsil ma’ruzalar qilindi.

1100 nafar muallifni qamrab olgan “Turkiy adabiyot durdonalari” adabiy to‘plami jahonshumul bir voqea bo‘ldi. Ushbu 100 jildlik asarlar majmuasini tayyorlashda 200 dan ziyod tarjimon qatnashdi. O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi hamda Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan yana ellikka yaqin adabiyotshunos va matnshunos olim, adib, muharrir va rassomlar nashrga tayyorlash, chop etish ishlariga keng jalb etildi. Majmua chin ma’noda xalqaro loyiha bo‘ldi, deb aytish mumkin.

Taqdimot marosimida O‘zbekistonda yangi ta’sis etilgan “Jadid” gazetasi haqida ham so‘z bordi. Yangi gazetaning konsepsiyasi, uning o‘z oldiga qo‘ygan vazifalari xususida O‘zbekiston Xalq shoiri, “Jadid” gazetasi bosh muharriri Iqbol Mirzo so‘zlab berdi. Yig‘ilganlarni qiziqtirgan savollar bo‘yicha muloqotlar bo‘lib o‘tdi. Taniqli san’atkorlar Farrux Zokirov, Ramiz Usmonov, Ozoda Nursaidova, Mohichehra Shomurodovalarning dil-tortar qo‘shiqlari ozarbayjon-o‘zbek san’atining hamohangligini namoyish etdi.

Ozarbayjon Milliy kutubxonasiga, Fuzuliy tumanidagi Mirzo Ulug‘bek nomidagi maktabga, Ozarbayjondagi elchixonamiz kutubxonasiga “Turkiy adabiyot durdonalari” majmualari taqdim etildi.

Bundan tashqari, anjuman doirasida turli ko‘rgazmalar tashkil qilindi, adabiy aloqalar, kino san’atida, umuman, birgalikdagi madaniy hamkorlik masalalarida fikr almashildi. “Nuroniylar” jamiyatlari o‘rtasida, “Maqsud Shayxzoda” haqida badiiy film yaratish bo‘yicha esa ikki davlatning Kinematografiya tashkilotlari bilan hamda O‘z FA Astronomiya instituti va Boku davlat universiteti o‘rtasida hamkorlik memorandumlari imzolandi. Shuningdek, jadidlar merosini o‘rganish va boshqa masalalarda Fanlar akademiyasi hamda mutasaddi tashkilotlar bilan o‘zaro hamkorlikka oid ishlar rejalashtirildi.

Bokuda o‘tgan do‘stlik kunlari, ma’naviyat anjumani tom ma’noda ikki qardosh xalqning o‘zaro ehtirom va hurmatiga limmo-lim tarzda yakun topdi. O‘ylaymanki, bu qardoshlik tadbiri o‘zaro mushtarak maqsadlarni amalga oshirish, qondoshlik rishtalarini mustahkam bog‘lashga ilhom va kuch beradi.

(Davomi 2-3-sahifalarda)

TADQIQ

“NAVOIYNING OTINI OLTIN BILAN YOZAYLIK...”

Jadid navoiyshunosligi haqida

XIX asr oxiri XX asr boshlarida yuzaga kelgan jadidlik harakatining faol ziyolilari o‘zbek mumtoz adabiyotiga doir turli masalalariga e’tibor qaratishdi. Xususan, mumtoz adiblar shaxsiyati, ijodi, asarlarining topilishi va ular ijodini maktablarda o‘qitishga ham befarq bo‘lmadilar. Turkiston jadidlari otasi Mahmudxo‘ja Behbudiy bir necha maqolasida Alisher Navoiy nomini tilga oladi. “Tujjor” gazetasining 1907-yil 10–11-sonlarida bosilgan “Islohi tahsil” maqolasida maktab muallimlari o‘z o‘quvchilariga an’anaviy o‘laroq sharq adabiyoti tarixidagi asarlarni, jumladan, Navoiy merosini o‘qitishlarini ta’kidlaydi. Ammo bola tafakkuriga sharq mumtoz adabiyoti og‘irlik qiladi.

Hatto “...bechora maktabdorlardan yuzda beshi bu kitoblarni zo‘rg‘a o‘qub fahmlamog‘i” mumkin. Bu masala Behbudiyga tinchlik bermagani uchun ham orada yana 1909-yili “Tarjimon” gazetasining 14-sonida “Turkistonda maktab lisoni” maqolasini e’lon qiladi va Sharq mumtoz adabiyotini tushunish, tushuntirish, qaysi tilda o‘qish va o‘qitish masalalariga qayta murojaat etadi. Anglash va fahmlash, o‘qilgan kitoblardan ma’naviy ozuqa olish – bu masalalar jadid muallimlarini befarq qoldirgan emas.

(Davomi 5-sahifada)

AKS SADO

MUQADDAS O‘CHOQ

“Kitob — ilm manbai”, deydi xalqimiz. Qur’oni karimda: “Bilimdonlar bilan nodonlar teng bo‘ladimi?” oyati karima mavjud. Shuningdek, Imom Ismoil al-Buxoriy “Al-jome’ as-sahih” majmuasida shunday hadisi sharifni keltiradi: “Ilm shunday narsaki, unga butun umringni bermaguningcha, senga o‘zining bir qismini ham bermaydi”. Shuning uchun ham xalqimiz azaldan kitob mutolaasiga, hatto o‘zining qiziqishiga yarasha uyida kutubxona tashkil qilishga katta e’tibor berib kelgan. Musulmon olamining Sheroz, Samarqand, Buxoroi sharif, Bag‘dodi sharif, Toshkent kabi shaharlarida ilm ahlini hayratga soladigan boy kutubxonalar bo‘lgan.

2017-yil 12-yanvarda Prezident Shavkat Mirziyoyevning mamlakatimiz ma’naviy-ma’rifiy hayotida, ayniqsa, izlanuvchan, iqtidorli yoshlar istiqbolida muhim ahamiyat kasb etgan “Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha komissiya tuzish to‘g‘risida”gi farmoyishi e’lon qilindi. Zero, muntazam mutolaa o‘quv fanlari uchun ma’naviy asos vazifasini bajaradi, kitobxonning fikr doirasini kengaytiradi.

(Davomi 6-sahifada)

MUTOLAA

“QISMAT SHAFQAT QILGANDA EDI...”

Yozuvchi do‘stimiz Xurshid Do‘stmuhammadning “Yolg‘iz” deb nomlangan qissasini shifoxonada o‘qib chiqdim. Shifokorlar “Ko‘p o‘qimang, ko‘zingiz charchaydi” deyishgandi, ammo bu kitobda meni muallif emas, unga so‘zboshi yozgan Shuhrat Rizayev chalg‘itdi. Olim do‘stimiz mening shifoxonaga otlanayotib, “Yolg‘iz”ni portfelimga solib qo‘yishimni avvaldan bilganday, so‘zboshini nima deb boshlabdi deng: “Oktyabrning birinchi shanbasi. Tong. Yolg‘izman. “Yolg‘iz”ni o‘qiyapman. Italiyada — O‘zbekiston elchixonasining pastak yolg‘izxonasida o‘qib tugatdim qissani. Uyda, tong-la saharda yolg‘izxonam — ishxonamda kirishgan edim mutolaaga, so‘ng bafurja yolg‘iz qolish imkoniyati topilmadi. Qarangki, nasib shu yerda ekan”.

Qissani o‘qiy boshlayman. G‘aroyib uslub. Hamma yozuvchining o‘ziga xos ifoda yo‘li bor, shu jihatdan ular bir-birlaridan farqlanib turadi. Xurshid Do‘stmuhammadga ham taalluqli bu gap. Ammo Shuhrat Rizayevning fikricha, uning uchun “...har asarda uslub bilan birga o‘z ijodiy manerasini topish muhim”. To‘g‘ri kuzatuv. Muallif bu maqsadga erishish, qo‘shiqning oxirigacha pardadan chiqib ketmaslik – sahna tili bilan aytganda – obrazda turish uchun, bilasizmi kimni... Abdulla Qodiriyning o‘zini yordamga chaqiradi, xalqona ibora bilan aytganda, “sopini Julqunboyning o‘zidan chiqaradi”.

“Yolg‘iz”ning mazmunini bayon qilish niyatim yo‘q. Qissani o‘qigan o‘quvchi hammasini tushunib oladi va ishonchim komilki, xuddi men kabi, mutolaa jarayonida uning ko‘ngliga ham ko‘p g‘aroyib fikrlar keladi.

(Davomi 6-sahifada)

BUGUNNING SO‘ZI

ABADIY KURASH



Rustam XOLMURODOV,
Samarqand davlat universiteti rektori, O‘zbekiston Respublikasi fan arbobi, Oliy Majlis Senati a’zosi

“Xalq so‘zi” gazetasida akademik domlamiz Rustam Xudoyberganovning maqolasini o‘qib, ko‘nglimiz tubida turgan gaplar-u dardlar yuzaga chiqqandek bo‘ldi. Bu jasoratli munosabatni “Jadid” gazetasida ham oshig‘ich chop etish kerak, degan fikrga keldik. Domlani tabriklash va oldilaridan birrov o‘tish uchun qo‘ng‘iroq qildik. Bir yo‘la gazetamizning ma’rifattalab yo‘li ravon bo‘lishi uchun duolarini oldik. Gazetxonlarimizga ilinganimiz kabi maqolalari, fikr-mulohazalarini “begona qilmay” eng avval “Jadid”ga ravo ko‘rishlarini yarmi hazil, yarmi chin qilib aytdik. Zero, bu maqoladan olgan bahra Sizni ham shunday mutaassir etishiga shubhamiz yo‘q, aziz o‘quvchi.

Bu haqda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan alohida qayd etilganidek, O‘zbekistonning har bir farzandi xalqimizning birdamligi, mamlakat yaxlitligi uchun kurashib yashashni o‘z hayotining ma’nosi deb bilmog‘i kerak! Biz bir bo‘lsak – yagona xalqmiz, birlashsak – Vatanmiz!

(Davomi 2-sahifada)

TERAN TOMIRLAR

Millatning uyg‘onishi, yurtning ozodligi va taraqqiy etishi uchun o‘z jonidan kechgan ma’rifatparvar ajdodlarimiz nomlarini qayta tiklash, ularning asarlarini xalqimiz, xususan, yosh avlod vakillari orasida targ‘ib etish bugungi kundagi asosiy vazifalar qatoriga kiradi. Prezidentimiz tashabbusi bilan bu borada so‘nggi yillarda qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda.

QADRDON SIYMOLAR TURK KINOIJODKORLARI NIGOHIDA

Jumladan, 2020 yilda Toshkent shahrida “Adiblar xiyoboni”ning barpo etilishi, bu yerda o‘zbek adabiyotining 24 nafar zabardast vakiliga yodgorlik o‘rnatilishi, ularning har biri haqida Kinematografiya agentligi tomonidan hujjatli va badiiy filmlar suratga olinayotgani ana shu ulkan e‘tibor va g‘amxo‘rlik isbotidir.

Yaqinda davlatimiz rahbari taklifiga binoan “Jadid” gazetasining tashkil qilinishi, jadidlar faoliyatiga bag‘ishlangan xalqaro anjumanlar o‘tkazilayotgani, buyuk allomalarimiz asarlari ko‘p nusxada chop etilayotgani ham alohida ahamiyatga ega.

(Davomi 7-sahifada)

(Boshlanishi 1-sahifada)

ABADIY KURASH

Bu fikrlar bejiz aytilgani yo‘q. Bugun biz dunyoda imperiyaparastlik va shovinizm bosh ko‘tarayotgan, tajovuz va tahdid tobora ortayotgan, tarixni buzib talqin qilish kuchayayotgan, kamsitish, bosqinchilik, vayronkorlik va bir-biriga qarama-qarshi qo‘yish, adovat qo‘zg‘ash, urushlarni moliyalashtirish, ichki ishlarga aralashish ochiq-oydinlik kasb etayotgan ziddiyatli va murakkab bir davrda yashayapmiz.

Mustaqil davlatlarga tahdidlar turli ko‘rinishlarda namoyon bo‘lyapti. Ba’zan unga beparvo qaraymiz, ba’zida kampaniyabozlik qilib, kimo‘zarga javob qaytaramiz. Lekin biz millat sifatida anglab yetishimiz zarur bo‘lgan bir haqiqat bor. Mustaqillik uchun kurash qachonki, unga nisbatan tahdidlar yuz bergandagina ko‘zga tashlanmasligi kerak. Bu ojiz qarash bilan mutlaqo murosa qilib bo‘lmaydi. Zero, mustaqillik uchun jang mamlakat va millat bor ekan, hech qachon to‘xtamaydi.

Unutmaslik kerakki, bu jang to‘xtagan kuni dushmanlar bosh ko‘taradi. Ular hali-hamon mustamlakachilik, hukmronlik da’vosidan voz kechgani yo‘q, payt poylab turibdi. Qachonki, biz ahillikni, birlikni, hamjihatlikni yo‘qotsak, ichimizdan xoinlar chiqsa, Vatan ozodligini ko‘z qorachig‘imizdek asramasak, bunday vaziyat dushmanlarimizga qo‘l keladi.

Ba’zan qaysidir kovaklardan, o‘zimizning ichimizdan chiqqan sotqinlarning jirkanch ovozi chiqib qoladi. Ular tutqunlik, qullik davrlarini zo‘r berib qo‘msaydi. Ular safsatasi “gugurt bir tiyin edi”dan boshlanadi. Ushbu chirkin qarashlarga chidab turish og‘ir. O‘sha zamonlarda “Qadring qancha edi?” – deging keladi.

Turmush qiyinligidan, nochorligidan ayollar o‘ziga o‘t qo‘ygan, “paxta ishi”, “o‘zbeklar ishi” girdobida otalar qamalgan, go‘daklar o‘limi ortgan, bemaqsad urush tufayli yigitlar jasadi temir tobutlarda qaytgan, bolalar paxta quliga aylantirilgan davrlarni nahotki unutgan bo‘lsak? Nahotki, shunday mash’um kunlarni qo‘msayotganlar oramizda bo‘lsa. Bu dahshat-ku...

Mustabid tuzumni qo‘msaydiganlarni, buyuk yozuvchi Chingiz Aytmatov ta’biri bilan aytganda, manqurt degim keladi. Nahotki, qandaydir moddiy narsalarga Vatan mustaqilligini qiyoslash mumkin bo‘lsa? Nahotki, uning qalbida milliy g‘urur bo‘lmasa? Or bo‘lmasa? Nomus bo‘lmasa? O‘sha kimlardir qo‘msayotgan mustabid tuzum bizni millat sifatida ojiz qilib qo‘ymadimi? Tafakkurimizga qo‘shib mutafakkirlarimizni o‘ldirmadimi? Osmadimi? Otmadimi? Surgun qilmadimi?

Agar mustaqillik bo‘lmaganida edi, biz allaqachon o‘zligimizni yo‘qotgan, qadriyatlarimizdan ayrilgan, tilsiz, erksiz, bir nochor xalqqa aylangan bo‘lar edik. Bugun mamlakat mustaqilligi haqida gapirayotgan ayrimlar uni oddiy hodisa sifatida ta’riflaydi. Yo‘q, aslo unday emas. Mustaqillik mamlakat va millatning qaddini tikladi. Mustaqillik millatning onggidan qullikka ko‘nish sindromini siqib chiqardi.

Mustaqillikning bebaho imkoniyatlarini, buyuk evrilishlarini, ulug‘ istiqbollarini anglash uchun mustabid tuzumning kirdikorlaridan xabardor bo‘lish, o‘sha ayanchli tarixni chuqur o‘rganish kerak. Bobolarimiz qanchalik xo‘rlanganini, toptalganini, qatag‘on qilinganini, millatning aqli, bilimi, o‘tmishi ayovsiz yo‘q qilinganini taftish etadigan payt allaqachon kelgan.

Hech qachon mustabidlik qaytib kelmasin. Xalqimiz ozod yashasin!

Ozodlik uchun kurashga jonini tikadigan avlodlar paydo bo‘lsin!

Vatanparvar, millatparvar yoshlar maydonga chiqsin!

Yaxshi bilingki, Vatan uchun, mustaqillik uchun kurash, bu — abadiy kurash. Bu kurashdan hech kim o‘zini chetga olishga haqqi yo‘q. Bu kurash umummillat kurashidir. Bu kurashda chekinib bo‘lmaydi.

Bugun O‘zbekiston jadal taraqqiy etayotgani ba’zilarga yoqmasligi aniq. O‘zbekistonning Markaziy Osiyo birligi yo‘lida ulkan ishlarni qilayotgani kimlarningdir tinchini o‘g‘irlaydi. Yurtimizning dunyo hamjamiyatidagi o‘rni tobora yuksalayotgani dushmanlarimizni bezovta qiladi.

Chunki ular bir paytlar mustaqillikning dastlabki yillarida “Bizsiz yasholmaydi”, “O‘zlari yalinib keladi”, “Chegarasini himoya qilolmaydi”, “Ertaga falon davlat ularni bosib oladi”, deya fol ochishgan edi. Lekin bu fol to‘g‘ri chiqmadi. Biz mustaqillikni boshimiz uzra baland ko‘tarib, mashaqqatli yo‘llarni mardonavor bosib o‘tdik.

Davlatimiz rahbari haqli ravishda qayd etganidek, bugun oldimizda turgan vazifalar qanchalik ulkan va murakkab bo‘lmasin, ularni birgalikda hal etishga kuchimiz ham, imkoniyatimiz ham yetadi. Biz endi kechagi odamlar emasmiz. Xalqimiz ham kechagi xalq emas.

Bugun O‘zbekiston dunyodagi nufuzli xalqaro tashkilotlarning to‘laqonli a’zosi. Dunyo tinchligida muhim o‘rin tutadigan mamlakat. O‘z so‘ziga, o‘z qarashlariga ega bo‘lgan qudratli davlat. O‘zbekiston uchun qaramlik allaqachon tarixga aylangan.

Xomtama bo‘lmang, millatimizni kamsitishingizga indamay qarab turmaymiz. Bugun bunday kimsalarga javob berishga, kimligimizni ko‘rsatib qo‘yishga kuchimiz ham, bilimimiz ham yetadi!

Aynigan kallangizdan chirkin xayollarni quving. O‘zbekistondan, o‘zbek xalqidan, balki nimalarnidir olishingiz mumkin. Lekin mustaqillikni emas!

Bu so‘zlarni qulog‘ingizga qo‘rg‘oshindek quyib oling!

MADANIY DIPLOMATIYANING

(Boshlanishi 1-sahifada)



Sohiba xonim GAFAROVA,
Ozarbayjon Milliy majlis Spikeri:

– O‘zbekiston Prezidenti muhtaram Shavkat Miromonovich Mirziyoyev bilan bo‘lib o‘tgan oliy darajadagi uchrashuvlarni yaxshi eslayman. Prezident janoblari jahon miqyosidagi faol va uzoqni ko‘ra oluvchi zukko davlat arbobidir. U zoti oliylarining Bizning Prezidentimiz Ilhom Aliyev bilan yaqin do‘stliklari va amaliy hamkorliklari, azm-u shijoatlari va, albatta, vatansevarliklari hammamiz uchun namuna deyishim mumkin. Ikki davlat rahbarining hamkorlik loyihalari uchun 177 ta hujjatni imzolaganlari buning dalilidir. O‘zbekiston Prezidenti Ozarbayjonning hududiy yaxlitligini doimo qo‘llagan buyuk davlat arbobidir. Biz, Ozarbayjon xalqi buni hech qachon unutmaymiz. O‘zbekiston Prezidenti Ozarbayjonni faqat so‘zda emas, amalda qo‘llamoqda. Fuzuliyda qad rostlagan muhtasham maktab biz uchun haqiqiy do‘stlik namunasidir.



Sodiqjon TURDIYEV,
“O‘zbekiston faxriylarining ijtimoiy faoliyatini qo‘llab-quvvatlash “Nuroniy” jamg‘armasi Respublika Boshqaruvi raisi, O‘zbekiston Qahramoni:

– Biz Ozarbayjon bilan ota-bobolari, avlod-ajdodiga izzat-ikrom ko‘rsatishda ham bir-biriga uyg‘un millatmiz. Yoshi ulug‘larga nisbatan oqibat masalasida qadriyatlarimiz juda o‘xshash. Shuning uchun ham har ikkala davlat qariyalarni qadrlash, keksalarni e’zozlash yo‘lida hamfikr bo‘la oladi va bu eng ezgu hamkorlik bo‘ladi, deb o‘ylayman.

Fan va madaniyat kunlari doirasida azaliy qadriyatlari bir-birinikidan deyarli farq qilmaydigan ikki davlat – O‘zbekiston va Ozarbayjon o‘rtasida muhim ahamiyatga ega tarixiy ishlar bo‘ldi. Ozarbayjon Oqsoqollar kengashi va O‘zbekiston faxriylarining ijtimoiy faoliyatini qo‘llab-quvvatlash “Nuroniy” jamg‘armasi o‘rtasida faxriylar va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha xalqaro hamkorlik to‘g‘risida shartnoma imzoladik.

Faxriylarimiz va nuroniylarimizga munosib e’tiborda bo‘lish yo‘lida o‘zaro tajriba almashish nazarda tutilgan ushbu hujjatga imzo chekarkanman, bu boradagi amaliy ishlarda ishtirokim bo‘lishining o‘zidanoq baxtiyorlik his qildim. Ozarbayjon birodarlarimizga bunday samimiy qabul va ehtirom uchun minnatdorlik bildirib qolaman.



Erkin A’ZAM,
“Tafakkur” jurnali bosh muharriri: O‘zbekiston xalq yozuvchisi:

– Bittagina kitob yozish yoki tarjima qilish mashaqqatini, uni nashrga tayyorlamoq va nashr etmoqqa necha zamon sarf bo‘lajagini... bilgan biladi! Shuning uchundir, O‘zbekiston Prezidentining bir necha yil burun Bokudagi oliymaqom mashvaratda turkiy adabiyot durdonalarini yuz jild qilib nashr etish borasidagi tashabbusini eshitib, buni anchayin bir orzu, ha boringki, odatdagi siyosiy mahovat deb anglaganimni yashirmayman.

Bugunga kelib ana shu ulkan, ulug‘vor g‘oya bekam-ko‘st amalga oshganiga tahsin aytmay ilojingiz yo‘q! Endilikda esa qardosh turkiy ellarga mehmon bo‘lib borilganda ana shu bebaho adabiy jamlanmani tortiq etish qutlug‘ an’anaga aylanayotir.

Fan va madaniyat arboblarining qondosh ozar yurtiga bu galgi tashrifiga undan tashqari yana bir noyobdan noyob hadya – milliy madaniy merosimizning jahon xazinalaridan to‘plangan zarkitoblari ham qo‘shilganini faxr bilan qayd etmoq lozimdir.

“Turkiy adabiyot durdonalari” to‘plamiga qaytib fikr qiladigan bo‘lsak, bu g‘oyat serdiqqat, sermashaqqat yumush necha fursatda uddalandi deysiz? Ishboshilarning e’tiroficha, nari-beri bir yil ichida. Olti oy matn tayyorlamoqqa ketgan, olti oy – matbaa ishlariga. Aql bovar qilmaydigan muddatlar!

Aslida esa bu qutlug‘ hamkorlik, bu robita besh asrlar muqaddam – hazrat Haydar Xorazmiyning “Nizomiy bolidin halvo pishurdim” demish mardona satrlaridan ibtido olgan. O‘sha zamonlardan buyon o‘zbek ulusi Nizomiy Ganjaviyni ham, Muhammad Fuzuliyni ham yotsiratmay o‘zining shoiri deb biladi.

Shu an’ana hamon bardavom. O‘zbek kitobxoni bugun turkiy dunyo adiblarining sardori, oqsoqoli sanalmish mashhur Anar muallimni aslo o‘zinikidan kam ko‘rmaydi. “Mening kitoblarim o‘z yurtimdan ko‘ra bu yerda ko‘proq o‘qilar ekan”, degan edi yozuvchining o‘zi. Ozarbayjon “Mug‘om” markazidagi taqdimot marosimida so‘zlarkanman, jo‘shib ketdimmi, kamina u kishini “O‘zbekiston xalq yozuvchisi” atab lutf qilib yuboribman. O‘ylab qaralsa, mohiyatan xato emasdir...

Taqdimot chog‘i “Turkiy adabiyot durdonalari”ning 100 jildini namoyishga terib qo‘yib, “Mana, biz so‘zimizning ustidan chiqdik, navbat – sizlarga!” dedik va ozar tilidagi yuz jildlikning ilk taqdimotini olam gulga to‘lgan bahor ayyomida Toshkentda o‘tkazishga taklif qildik.

Sezishimizcha, bu borada dastlabki tadoriklar ko‘rila boshlangan...



Anar RZAEV,
Ozarbayjon Yozarlar birligi raisi, Ozarbayjon xalq yozuvchisi, O‘zbekiston Respublikasi “Do‘stlik” ordeni sohibi:

– Men O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning uch jihatini hurmat qilaman. Birinchisi, u turkiy dunyoni, turkiy mamlakatlarni bir-biriga yaqinlashtirdi. Ikkinchisi, adabiyotga juda katta e’tibor bermoqda. Uchinchisi, u Ozarbayjon xalqining do‘sti. Men o‘zbek xalqini-da uch xislatini yuksak qadrlayman. Dastavval, bu xalq qadim madaniyat beshiklaridan biridir. Qolaversa, dunyo tamadduniga Termiziy, Buxoriy, Farg‘oniy, Xorazmiy, Beruniy, Navoiy, Bobur kabi o‘nlab daholarni yetkazib bergan ulug‘ onadir. Uchinchidan, bag‘ri keng, mehridaryo xalqki, biz buni ulug‘ vatan urushi yillarida aniq-tiniq ko‘rganmiz. Shunday Xudo bergan xalqning Xudo yorlaqagan yo‘lboshchisi eson bo‘lg‘ay.



Gulbahor SAIDG‘ANIYEVA,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati, filolog, shoira:

– O‘zbekiston va Ozarbayjon turkiy tilli davlatlar orasida bir-biriga eng yaqinidir. Toshkentda Nizomiy Ganjaviyning, Bokuda Alisher Navoiyning haykallari o‘rnatilgani do‘stligimizning buyuk bir ramziga aylangan.

O‘zbek yozma adabiyoti Ozarbayjon yozma adabiyoti bilan chambarchaslikda rivoj topdi. Buning yaqqol namunasi sifatida Navoiy, Fuzuliy, Habibiy, Voqif, Samad Vurg‘un, Amiriy va boshqa shoirlar ijodidagi o‘zaro adabiy ta’sirni ko‘rsatib o‘tishimiz mumkin. Xamsanavislik an’anasini boshlab bergan Nizomiy Ganjaviy nomini Navoiy “Hayrat ul-abror” dostonida hurmat bilan tilga oladi va “Ganja vatan, ko‘ngli aning ganjxez, Xotiri ganjur-u tili ganjrez. Fikrati mizoni bo‘lub xamsasanj, “Xamsa” dema, balki degil panj ganj” yoki “Gavhari yo‘q “Maxzan ul-asror”dek, Axtare yo‘q “Matla ul-anvor”dek”, deya yuqori baho beradi. O‘z navbatida, Hirotda Navoiy yaratgan she’riyat maktabida ham Ozarbayjon shoirlari tahsil olgani, Fuzuliyning ustozi Habibiyning Navoiydan ta’lim olgani aytiladi. O‘zbek adabiyotiga ko‘plab ijodkorlarni bergan Qo‘qon adabiy muhitiga ham ozarbayjon shoiri Fuzuliyning ta’siri kuchlidir. Jumladan, Amiriyning qator muxammaslari, hozirgi zamon Qo‘qon adabiy muhiti vakillarining bitiklari shundan dalolat berib turibdi. Biz asrlarkim, “Go‘ro‘g‘li” yoki “Ko‘ro‘g‘li”, “Oshiq G‘arib”, “Kitobi Dada Qo‘rqut” kabi folklor asarlarini o‘rganib, olimlarimiz tomonidan xalq og‘zaki ijodimizning ham mushtarak jihatlarini tadqiq etib kelamiz.

XX asr davomida ham bu adabiy-madaniy aloqalarimiz uzilmadi. Ayniqsa, keyingi yillarda tarjima adabiyotimiz gullab-yashnamoqda. Ustozimiz Jamol Kamol tomonidan Nizomiy “Xamsa”sining tarjima etilishi, ko‘plab ozarbayjon shoirlarining asarlari o‘zbekchaga o‘girilishi bugungi o‘zbek o‘quvchisini ozarbayjon adabiyoti bilan yaqinlashtirgan bo‘lsa, Ozarbayjon olimi, “Do‘stlik” ordeni sohibi Ramiz Asker tomonidan Navoiy asarlarining ozarbayjon tiliga o‘girilishi, ular ustida olib borilgan tadqiqotlar ozarbayjon o‘quvchilarini o‘zbek klassik adabiyoti bilan tanishtirdi.



Almaz Ulvi BINNATOVA,
filologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekiston Respublikasi “Do‘stlik” ordeni sohibasi:

– 26–27-yanvar kunlari Ozarbayjonda o‘tkazilgan O‘zbekiston fan va madaniyati kunlari doirasida o‘zbekistonliklarning Boku shahriga kelishlari o‘lkamizda bayram tusini oldi.

O‘z vaqtida yaqin tarixda o‘tkazilgan turli madaniy tadbirlarda G‘afur G‘ulom, Maqsud Shayxzoda, Zulfiya, Abdulla Oripov, Hamid G‘ulom, Komil Yashin, Izzat Sultonov, Mamarasul Boboyev, Turob To‘la, Ramz Bobojon, Sobir Abdulla, G‘ayratiy, Asqad Muxtor va boshqa taniqli o‘zbek shoir-yozuvchilarining faol qatnashganini mamnuniyat bilan esga olamiz.


Ozarbayjon ziyolilari huzurida “O‘zbekiston madaniy merosi jahon to‘plamlarida”, deb nomlangan 50 jildlik rasmli kitob-albomlar hamda 100 jildlik “Turkiy adabiyot durdonalari” kitoblarining taqdimoti bo‘lib o‘tdi. Tabiiyki, biz adabiyotshunoslar bularni tarixiy voqealar sifatida qadrlaymiz.

Ushbu adabiy voqea o‘zbek ziyolilarining qardosh Ozarbayjon xalqiga, uning boy adabiy merosiga bo‘lgan chuqur hurmati ifodasi sifatida baholandi.

Darvoqe, “Jadid” gazetasi o‘zbek adabiyoti va matbuotida yangi hodisadir. Hozircha beshta soni chop etilgan bu gazeta Ozarbayjon Milliy Fanlar Akademiyasi Nizomiy Ganjaviy nomidagi Adabiyot instituti olimlari tomonidan e’tirof etildi. “Yangi yo‘limizni yanada ravshanroq yoritish uchun tariximizni eslash lozim” tamoyili asosida ishlayotgan o‘zbek ziyolilariga muvaffaqiyatlar tilaymiz.

Bunday do‘stona uchrashuvlar, qardoshlik aloqalari samarasi bo‘lgan tarixiy tuhfalarning taqdimotlari davom etishiga ishonamiz.

YORQIN MUVAFFAQIYATI




Oydin ABDULLAYEVA,
Oliy majlis qonunchilik palatasining Fan, ta'lim, madaniyat va sport masalalari qo'mitasi a'zosi:

– Bir go'zal aforizm bor. "San'atning barcha turi musiqaga aylanishni istaydi". Darhaqiqat, adabiyot bor joyda musiqa bor, musiqa bor joyda esa, albatta, adabiyot bo'ladi. Shu ma'noda aytib o'tish joizki, XX asrda yuksak iste'dod sohiblari bo'lgan o'zbek adibi Sharof Rashidov hamda ozarbayjon kompozitori Orif Melikov o'rtasidagi ijodiy hamkorlik natijasi o'laroq "Ikki dil dostoni" nomli go'zal balet yaratilgan. Ushbu asar shedevr darajada sahnalashtirilib, jahonning eng nufuzli sahnalarida namoyish etilgan va dunyo jamoatchiligining yuksak e'tiborini qozongan.

Mana shunday ijodiy, adabiy-madaniy uyg'unlik an'analarini davom ettirib, ikki xalqning adib va san'atkorlarining madaniy hamkorligini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish, turkiy olamning intellektual mulkini yangi asarlar bilan boyitish davr talabidir. Shu ma'noda, XXI asrda o'zbek va ozarbayjon kompozitorlari birligida betakror opera va baletlar uchun yangi asarlar yaratish kerak, deb o'ylayman. Ushbu hamkorlik natijasida yuzaga keladigan asarlar turkiy dunyoning boy tarixi, yuksak tafakkuri, estetik-falsafiy olamini o'zida aks ettirib, jahon san'atining yangi ufqlarini belgilab berishi kerak.

Bugungi kunda o'zbek va ozarbayjon shoir-yozuvchilari va san'at ustalarining hamkorligi uchun barcha imkoniyatlar bor. Zero, mamlakatlarimizda faoliyat yurituvchi ijodiy uyushmalarning o'zaro hamkorlikda ijod qilishi xalq diplomatiyasining ham rivojiga xizmat qilishi shubhasizdir.



Farrux ZOKIROV,
O'zbekiston xalq artisti:

– Ozarbayjonlik san'atkorlar bilan bizning oilaviy bordi-keldimiz bor edi. Otam – O'zbekiston xalq artisti, mashhur opera xonandasi Karim Zokirov Ozarbayjonning buyuk san'atkorlaridan biri Bulbul Mamedov bilan do'stona munosabatda bo'lishgan. Undan keyingi avlod sifatida akam, estrada xonandasi Botir Zokirov Ozarbayjonning betakror ovoz sohibi Muslim Magamayev bilan qadrdonlashib ketishgan ekan. Ular 1966-yilda Fransiyadagi Olimpiya teatrida birgalikda chiqish qilishgan va bu chiqishlari katta shuhrat qozongan. O'sha paytlarda akam Rashid Beybutov, Zaynab Xonlarova kabi mashhur ozarbayjonlik xonandalar bilan qadrdon do'st va ijobiy ma'noda ijodiy raqobatda bo'lishgan. Ya'ni hamisha quchoq ochib ko'rishishgan, bir-birining qo'shig'ini eshitib, ilhomlanishgan, ruhlanishgan.

O'shanda boshlangan an'analar hamon davom etyapti. Ozar san'atkorlari bilan do'stliklarimiz ipi uzilgan emas. Buyuk ozar san'atkori Po'lat Bulbul o'g'li bilan bordi-keldi qilib turamiz. Ozarbayjonga o'zimni uyimga kirib borganday boraman. Balki bu otam va akamdan boshlangan qadrli tuyg'ularning davomidir. Ozarbayjonda bo'lib o'tgan O'zbekiston fan va madaniyat kunlarida Haydar Aliyev nomidagi mashhur san'at saroyida to'plangan ozarbayjonlik muxlislarim bilan navbatdagi ko'rishuvim meni shunday bir hayratga soldiki... Ayniqsa, yangi avlod vakillari bo'lgan yoshlarning qo'shiqlarimizni jon quloqlari bilan tinglaganlari, ehtirom ko'rsatganlari menga nihoyatda xush keldi. Biz bir-birimizdan kuch oladigan qardoshlarmiz. O'ylaymanki, mana shunday ijodiy bordi-keldilarimiz bundan keyin ham davom etadi. Ozarbayjonlik san'atkorlar, olimlar, ijodkorlar, do'stlarimiz O'zbekistonga ham, albatta, kelishadi. Biz adabiyot, madaniyat va san'at vositasida do'stligimizni yuqori bosqichlarga olib chiqaveramiz. Ozarbayjonda bo'lib o'tgan O'zbekiston fan va madaniyati kunlaridan juda katta taassurot oldik, ilhom oldik, kuch oldik. Bular barchasi yangi qo'shiqlar yaratishimizga, yangi hamkorliklarni yo'lga qo'yishimizga xizmat qiladi.



Xosiyat RUSTAMOVA,
"Kitob dunyosi" gazetasi bosh muharriri:

– Ozarbayjonda kechgan O'zbekiston fan va madaniyati kunlari sabab qardosh do'stlarimiz bilan yana uchrashish imkoniga ega bo'ldim.

Ozarbayjon Yozarlar birligi, Pedagogika Universiteti va Matbuot sho'basida o'tkazilgan kitoblarim taqdimoti va adabiy uchrashuvlarda ularning mehr-oqibatini yana bir bor his qildim.

Adabiyot, she'riyat borasida, bugungi kunda ma'naviyatga, insoniy tuyg'ular, axloq va ezgulik tushunchalariga raxna solayotgan turli sabablar, yoshlar qalbida kitobga mehr uyg'otish kabi muammolar haqida yuzma-yuz turib musohaba qilish, dunyoni xavotirga solayotgan jihatlar haqida fikrlashish, eng muhimi, ildizi bir xalqlarimiz orasida qardoshlik rishtalarini yanada jips bog'lash bobida birdillik ila suhbatlashish maroqli kechdi. Bizni Boku uzra adabiyot va san'at, ma'naviyat yetaklab yurdi.



Iqbol MIRZO,
"Jadid" gazetasi bosh muharriri:

– Ustozlarimiz "Balandparvoz bo'lma, parvozing baland bo'lsin", deganlar. Parvozi baland, shinam O'zbekiston havo yo'llari aviakompaniyasining Toshkent-Boku uchog'iga chiqib, yo'lxaltamga avaylab solingan "Jadid" gazetasidek omonatni ozarbayjon do'stlarimizga yetkazish gashtidan boshim osmonda, endi o'rnashibgina o'tirgandim. Birdan "Samo qizi" patnisda lutf bilan gazet taklif qilib qoldi. Ko'zimga ishonmay qayta qaradim, gazetlarning eng tepasida bizning "Jadid" gazetamiz olovdek yolqinlanib turibdi. Darrov suratga tushirib, telegram kanaliga joyladim. Shu tariqa gazetamizning ilk taqdimoti samoda boshlandi.

Bokuda qardosh do'stlarimiz bizni qaynoq mehr-u e'tibor bilan kutib olishdi, izzat ko'rsatishdi.


Jadidlikning peshqadam vakillari turk, tatar va, albatta, ozar qardoshlarimiz orasida ko'p kamolga yetganlar va Turkiston ozodligi, ravnaqi uchun jiddu jahd ko'rsatganlar. Ozarbayjonda ham rivoj topgan jadidchilik harakati va jadid adabiyoti Turkiston jadidlari faoliyatiga hamohangdir. Mirza Fatali Oxundovdan boshlangan ma'rifatchilik harakati keyin ham davom etdi. Matbuotning yuzaga kelishi, sof ma'rifiy islohotlarni nazarda tutgan harakat Hoji Zeynalabiddin Tagiyev, Mirza Alekper Sabir, Jalil Mamedkulizade, Uzeir Hajibeyli kabi turli soha kishilari, ko'plab ziyolilar tomonidan amalga oshirilgan.

Ozar oydinlari gazetimiz haqida allaqachon xabar topishgan, elektron shakldagi nashrimizni katta qiziqish bilan kuzatib borayotgan ekanlar.

Ozarbayjon parlamentida bo'lib o'tgan uchrashuvda spiker Sohiba xonim Gafarova ham biz taqdim etgan "Jadid" gazetimizni yuksak baholab, jadid bobolarning madaniy aloqa vositasi avvalo matbuot bo'lganini alohida ta'kidladi.

O'tkazilgan barcha ma'rifiy tadbirlarda gazet taqdimoti bilan qatnashdik. Ozar ijodkorlari asarlaridan namunalar chop etilgan sonlarni mualliflariga sovg'a qildik. Bir qator jadidshunos olimlar bilan uchrashib, hamkorlik masalasida kelishib oldik.

Bu afsonaviy, olijanob va mard insonlar yurti – "olovlar o'lkasi"da yuraklarimizga bir hovuch otash solib, yana bir karra do'st bilan dunyo obod ekaniga, qardosh bilan hayot mazmunliroq bo'lishiga amin bo'ldik.




Javlon UMARBEKOV,
O'zbekiston xalq rassomi:

– Bu Ozarbayjonga mening ikkinchi safarim. 44 yil avval, ya'ni 1980-yilda bo'lib o'tgan O'zbekiston san'ati va adabiyoti dekadasida ham ishtirok etgan edim. O'shanda bizni Ozarbayjonning birinchi rahbari Haydar Aliyev shaxsan qabul qilib, juda katta hurmat ko'rsatgan edi. Oradan shuncha yil o'tib bu go'zal davlatga safar yana nasib qildi. Negadir to'rt kun davomida shuncha ko'p uchrashuvlarimiz bo'ladi, muloqotlar qilamiz, konsertlar beramiz, deb xayolimga keltirmabman. Biz juda ko'p ishlarni qilishga ulgurdik shu to'rt kun ichida.

Biz Ozarbayjon milliy tasviriy san'at muzeyini borib ko'rdik. U yerda bizni muzey direktori Shirinxonim Malikova qabul qildi va muzey eksponatlari bilan tanishtirdi. Meni hayratlantirgan voqea shunda bo'ldiki, muzeyda yevropa, rus va ozarbayjonning tasviriy san'atiga taalluqli eng sara asarlarni o'z ko'zim bilan ko'rdim. Ayniqsa, ular orasida rassomlik faoliyatimning ilk davrida taniganlarim – Ozarbayjonning Toir Salaxov, To'g'rul Narimanbekov, Chingiz Farzaliyev, Aliakbar Rizaquliyev kabi jahonga mashhur rassomlari asarlarining borligidan to'lqinlandim. Bu asarlarni juda katta qiziqish bilan tomosha qildim. Safar davomida biz eski shaharga ham tashrif buyurdik. O'lkaning eng diqqatga sazovor tarixiy obidasi sanalgan Qiz qal'asi, XVI–XVII asr me'morchiligining go'zal namunasi – Shirvonshohlar saroyini borib ko'rdik. O'sha eski tosh ko'chalarda sayohat qilib, qariyb yarim asr oldin yurgan ko'chalarda yurib, boshqacha bir ruhlandim. Zavq bilan suratlarga oldim.

Boku o'zi go'zal shahar. Bu gal u meni yanada hayratga ko'mdi. Anjumandan olgan eng katta taassurotim esa qardoshlar bilan ko'rishib, ularning fikrlarini o'z tillarida tinglab, hech bir qiyinchiliksiz tushunganim bo'ldi. O'zbeklar o'zbek tilida gapirdi, ozarbayjonlar ozarbayjon tilida. Bir-birimizni yuz foiz tushundik. Tilmoch ham kerak bo'lmadi. Mana shunisiga qoyil, dedim. San'atimiz, kiyim-kechaklarimiz, musiqamiz, ashulalarimiz o'xshaydi. Umuman, o'xshashlik joylarimiz juda-juda ko'p. Bir ziyoli inson sifatida, rassom sifatida Ozarbayjon safaridan o'zim uchun va ijod uchun ko'p narsalar olib keldim.



Mahmud TOIR,
O'zbekiston xalq shoiri:

– Mazkur qutlug' anjumanda ishtirok etgan guruhimizdagi o'ttizdan ziyod a'zolarning har biri millatimiz fani, adabiyoti, san'atida o'z o'rni, nufuziga ega insonlar ekani e'tiborlidir. Shu bois, qardosh va qadim Ozarbayjonda hamrohlarimiz ham ziyolilar – o'z kasbining yetuk kishilari bo'ldi.

Ikki qardosh xalq do'stlik tamal toshini buyuk ajdodlarimiz allaqachonlar qo'ygan bo'lsa, bugun ana shu rishtalar tobora tomir otib, et-u tirnoqqa aylanib bormoqda. Tili, dini, dili bir, asrlar osha yashab kelayotgan qadriyat-u an'analari bir-biriga yaqin, san'ati hamohang – bamisoli egizak millatni yana qayerdan topasiz?! Muhimi, o'zbek xalqi, O'zbekiston davlati Ozarbayjonni hamisha qo'llab-quvvatlab kelgan, bundan keyin ham shunday bo'lib qolaveradi. Har ikki davlat rahbarlari dunyo tinchligi, turkiy xalqlarning baxt-u saodati, farovon turmushi, yorqin g'oyalar, porloq istiqbol, xayrli tashabbuslar borasida maslakdosh.

Ozar yurtida o'tgan to'rt kunimizning qariyb har lahzasida biz O'zbekistonga, o'zbeklarga bo'lgan samimiy mehr-u oqibatni, muhabbatni ko'rdik. Olam ayvonida faqat qirg'iz-u qozoq va turkmangina emas, bir ulkan dengiz ortida ozar-u turk kabi bizning qator-qator qondosh-u maslakdoshlarimiz borligini takror his qildik. Anjumanlardagi chiqishimiz, o'qigan she'rlarimiz-u ma'ruzalarimiz e'tirofi o'laroq yangragan olqishlar og'ushida shukuhlandik. Bu do'stlikka, bu tinchlikka – bordi-keldilarimizga aslo ko'z tegmasin.



Shuhrat EGAMBERDIYEV,
O'zR Fanlar akademiyasi Astronomiya instituti direktori, akademik:

– 25-yanvar kuni Boku davlat universitetida O'zbekiston delegatsiyasi a'zolarining Ozarbayjon ilmiy jamoatchiligi bilan uchrashuvi bo'lib o'tdi. Uchrashuvda so'zga chiqqan Ozarbayjon Milliy Fanlar akademiyasining prezidenti, akademik Isa Habibbeyli adabiyot sohasidagi hamkorligimiz Nizomiy va Navoiylardan boshlanganligini alohida ta'kidlab o'tdi.

Ikki qardosh xalqning aniq fanlar sohasidagi hamkorligi ham qadimdan boshlangan. XIII asrda yashab o'tgan Ozarbayjon qomusiy olimi Nasriddin Tusiy Abu Rayhon Beruniy va Ibn Sinolarning ishlariga sharhlar yozib, ularning g'oyalarini rivojlantirishga katta hissa qo'shgan. Lekin uning ilm-fan rivojiga qo'shgan eng salmoqli hissasi astronomiya va matematika sohalarida bo'lgan. Tusiy Marog'a shahrida astronomiya rasadxonasini barpo etib, sayyoralar harakatlarining modellarini tuzgan. Oradan ikki asr o'tib, jahon astronomiya fanining markazi Samarqandga ko'chadi. Mirzo Ulug'bek maktabining namoyandalari uning ilmiy asarlaridan keng foydalangan va 1018 yulduzni tuzib, olamshumul ilmiy natijalarni qo'lga kiritgan. Darvoqe, Ozarbayjonning Fuzuliy shahrida Mirzo Ulug'bek nomidagi zamonaviy maktab O'zbekiston tomonidan qurib, sovg'a qilinganini alohida eslash kerak.

O'zbekistonda astronomiya fanining buguni va porloq istiqbollari mavzusidagi ma'ruzamizda biz ham Maydanak observatoriyasida Prezidentimizning tashabbusi bilan o'rnatilajak ko'zgusining diametri 4 metr bo'lgan teleskop astronomiya fanida katta burilish yasashi mumkinligi haqida so'zladik. Ozarbayjonlik astronomlar ham ushbu observatoriyada o'zbekistonlik hamkasblari bilan hamkorlikda ilmiy tadqiqotlarni olib borishdan manfaatdorliklarini bildirishdi.

Uchrashuv Boku Davlat Universiteti va O'zbekiston Fanlar akademiyasi Astronomiya instituti orasidagi hamkorlik Memorandumi imzolanishi bilan yakunlandi.

Yana shuni inobatga olish kerakki, astronomiya bu ham O'zbekiston, ham Ozarbayjon uchun nafaqat fan yo'nalishi, balki yirik ilmiy tadqiqotlarimizning umumiy poydevori bo'lishi ham mumkin. Chunki bu sohada buyuk allomalarimiz jahon ilm-fani rivojiga salmoqli hissa qo'shishgan va bu an'anani yanada rivojlantirish ikki qardosh xalq uchun ham qarz, ham farzdir!



Elchin Safarog'li BABAYEV,
Boku davlat universiteti rektori, professor:

– Ozarbayjon va O'zbekiston orasidagi ikki tomonlama hamkorlikning muhim yo'nalishlaridan biri bu fan va ta'lim sohalaridagi hamkorlikdir. Bugunda Boku davlat universiteti O'zbekiston Milliy universiteti, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Toshkent yuridik universiteti kabi O'zbekistonning qator yetakchi oliy o'quv yurtlari bilan shartnomalar tuzib, yuqori malakali kadrlar tayyorlash borasida hamkorlik ishlarini amalga oshirib kelmoqda.

Ozarbayjon va O'zbekiston buyuk tarixga ega bo'lgan qardosh xalqlardir. Balki shuning uchun ham bizning mamlakatlarimizda buyuk bobokalonlarimizning ilmiy meroslarini o'rganish, targ'ib qilish va shu orqali yoshlarimizni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga katta ahamiyat beriladi. Mutaxassisligim bo'yicha astronom bo'lganligim uchun Nasriddin Tusiy va Mirzo Ulug'beklar ilmiy maktablarida olib borilgan ishlarni o'rganish va targ'ib qilish men uchun alohida ahamiyat kasb etadi. 2023-yilda Samarqandda Mirzo Ulug'bekning shogirdi Alovuddin Ali Qushchining 620 yilligiga bag'ishlangan Xalqaro anjumanda qatnashdim. Bu yil esa Mirzo Ulug'bekning 630 yilligiga bag'ishlangan katta tadbirda ishtirok etishni rejalashtirib turibman.

Shuni g'urur bilan aytishim mumkinki, buyuk an'analar Ozarbayjon va O'zbekistonda davom etib kelmoqda. O'zbekistondagi Maydanak observatoriyasida o'rnatilajak ko'zgusining diametri 4 metrli teleskop va Suppa yassitog'ida barpo etilajak 70 metrli radioteleskop astronomiya sohasida katta burilish hosil qilishi mumkin bo'lgan inshootlardir. Biz O'zR Fanlar akademiyasi Astronomiya instituti bilan imzolagan Memorandum ana shu tadqiqotlarni hamkorlikda amalga oshirishga qaratilgan. O'ylaymanki, bu hamkorlik boshqa sohalarda ish olib boruvchi olimlarimizga ham turtki bo'ladi.



G'ayrat MAJID,
O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi o'rinbosari:

– Men Ozarbayjon bilan ijodiy hamkorligimizning cho'qqisiga aylangan "Turkiy adabiyot durdonalari" majmuasiga to'xtalmoqchiman.

Majmuada 133 nafar mashhur shoir va adibga alohida jild ajratildi. Shundan 88 nafar ijodkorning asarlari o'ziga zamondosh, uslubi va yo'nalishi jihatidan hamohang bo'lgan boshqa adib va shoir bilan bitta jildga kiritildi. Yakka o'ziga alohida jild ajratilgan ijodkorlar soni 45 nafar bo'ldi.

Ozarbayjon adabiyotiga 16 jild ajratilgan. Ozarbayjon adabiyoti Nizomiy Ganjaviyning g'azallari hamda "Layli va Majnun" dostoni bilan boshlanib, mumtoz adabiyotning yirik vakillari Nasimiy, Mahsatiy Ganjaviy, Hoqoniy, Hayron xonim, Xurshidbonu Notavon, Fuzuliy she'riyatidan namunalar, shuningdek, ozarbayjon dramaturgiyasi asoschisi Husayn Jovid dramalari, Yusuf Chamanzaminli, Mamedsaid O'rdubodiy, Mirza Ibrohimov romanlari, Samad Vurg'un, Baxtiyor Vahobzoda, Xalil Rizoning she'r va dostonlari bilan davom ettirildi. Majmua uchun Saidazim Shirvoniy, Muhammad Hodiy, Sobir Aliakbar g'azallari, Ahmad Javod, Sulaymon Rustam, Olmos Yildirim, Mikoil Mushfiq, Rasul Rizo, Nabi Hazriy she'rlari maxsus tarjima qilindi. Zamonaviy ozarbayjon adabiyoti vakillari Anar, Sobir Rustamxonli, Ramiz Ravshan asarlari alohida jildlarda taqdim etildi.

SIRLAR-U SEHRLAR O‘RTADI MENI



Usmon AZIM,
O‘zbekiston xalq shoiri

Rivoyat

1

Payg‘ambar iltijo etdi:
– Ey, Egam!
Bu dam bandalaring kechmishi og‘ir!
Sillamiz quridi qurg‘oqchilikdan –
Rahmatingni to‘kkin! Ayt, yog‘sin yomg‘ir!

Qavmimga qaragin – bari pokdomon!
Tangrim, o‘tmay qoldi ammo kunlari.
Tangrim, odamlarni qiynadi yomon –
Nonga zor bo‘lishning cheksiz munglari!

Dunyoda qolmadi bir barg yashillik,
Yerdan qad uzmadi bir poya bug‘doy.
Naqadar benajot bu tarz asirlik –
Qor-u yomg‘iringni yuborgin, Xudoy!

Payg‘ambar nolasi qolmas bejavob,
Vahiy yetib keldi falak toqidan:
– Ey, rasul, chekmagil buncha iztirob,
Qavming chiqmagandir Olloh rohidan.

Ular yashamoqda halol, beozor –
Maloyiklar o‘qir bu holga tahsin!..
Ammo orangizda bir gunohkor bor,
U tavba aylasin, tavba aylasin!

Sillasi qurigan odamlar qator…
Vahiydan bir so‘zni etmasdan tahrir
Payg‘ambar aytdikim:
– Bir gunohkor bor,
U tavba aylasa, yog‘adi yomg‘ir.

Tez tavba aylasin! Yog‘ar muqarrar!
Rahmonning ra’yini aylasin rozi!..
Jamoa turibdi bosh egib – muztar,
Ammo bir kimsaning chiqmas ovozi.

Rasul xitob etdi – o‘rtanib ma’lul,
Uch bor nido qildi, ammo bekorga...
Ortiga burilib joynadi rasul,
Yana roz aytgani parvardigorga.

Ammo yetib keldi bir zumda bulut,
Guldirak “qars” etdi”! Boshladi yomg‘ir!
Bir damda suv oqdi ariqlar to‘lib –
Ollohning qudrati naqadar mohir!

Bir chetda – ust-boshi yomg‘irda ivib,
Selsebor yig‘ladi bir osiy banda:
– Aybimni yashirding, qodir Xudoyim,
El aro bo‘lmasin, deding sharmanda!

Uyatdan shol bo‘ldi aqlim-u tanim,
Bir sasga quvvatim yetmadi hatto!
Sen ko‘rding egilgan boshimni manim –
Aybimni yashirding, qodir Xudo-yo!..

2

Necha kun to‘lg‘onib, qancha yo‘l bosdim
Ruhda – bu hadisning yuksak sehridan...
Allohim, to‘lg‘onib shu she’rni yozdim –
Tangrimning menga ham tutgan mehridan!

* * *

Ba’zan juda go‘zal odamlar ishi!
Beshmi, olti odam (yoxud yettita?)
Yod etib eng ezgu kuzning tashvishin,
Nihollar ekishar ko‘cha chetiga.

Ularning hovlisi emas, bu – ko‘cha!
Ammo beshmi, olti (yoxud yettita?)
Odam reja bilan chamalab – o‘lchab,
Nihollar ekishar ko‘cha chetiga!

Garchi xazon fasli avjida bu dam –
Hademay, kuz tugab, kunlar qishlashar...
Ammo beshmi-olti (yo yetti odam?) –
Bahor yetganiday – gullab ishlashar.

Yomg‘irdan so‘ng

Naqadar toza havo –
Yomg‘irdan so‘ng.
Kengayib ketgan dunyo –
Bor tarafi o‘ng.

Falak bo‘yi anqigan
Farishta suvga,
Maysalar – baxt sharhida –
Yuzlarin yuvgan.
Gullar – jannatdan chiqqan! –
Tebranar yelda...
Ruhda bu dam So‘zlar sha’n! –
Kirmoqchi she’rga.

* * *

Ruhimda to‘lg‘ondi xavotir – tengsiz! –
Go‘yo mensiz sarson bir ulug‘ maqsad:
Bir ulug‘ voqea ro‘y berar mensiz,
Mensiz chekinmoqda bir ezgu sarhad.

Dunyoga doxillik chegarasida
Yashashga ko‘nikkan bu ruh-u yurak,
Qarigan tanimning tevaragida
Yo qafas xatarin payqadi beshak?

Yuksaling parvozning barakatidan!
Uching! Sizni duo aylamayman bu dam...
Siz barpo gar umrim harakatidan...
Mensiz ham yashaysiz ammo... Mensiz ham!

Izg‘irin

Beva shamol tunda uvladi.
Izg‘irinda tog‘-u dasht – sag‘ir.
Goho g‘ussa uni quvladi,
Goh g‘ussani yamladi taqdir.
Shamol chopdi – jarga yiqilib –
Tovonida tosh qirralari.
Bir-biriga oldi tiqilib –
Zich muzladi qor zarralari.
Inlariga kirdi jondorlar,
Izg‘irinning damidan qochib.
Issiq g‘orda nimadir porlar...
Bo‘ri uxlar – ko‘zlari ochiq!
Bir-biriga bosh qo‘yib chandon,
Dumlarini bosib bag‘riga,
Ikki tulki oladi orom
In ichida – zulmat sahnida.
Ayiq qayda? Ayiq uxlagan
Allaqachon – sovuq yetgan dam.
U afandi – mahkam qulflagan
O‘rasini shox-shabba bilan.
Izillagan sovuqdan qochib,
Allaqayga chekingan xatar.
Ana, quyon uxlaydi yolchib,
Qo‘rqinch haddi bu dam besamar.
Unutgancha o‘sish zahmatin,
O‘zni tamom yo‘qotib, behis –
Tandan uzmay bori qudratin –
Yer tagida mudraydi ildiz.
Beva shamol tunda uvladi.
Izg‘irinda tog‘-u dasht – sag‘ir.

Goho g‘ussa uni quvladi,
Goh uvvosni yamladi taqdir.
Shu taqdir-u g‘amni oralab,
Yelkasida hasrati olam,
Borsa kelmas joyni qoralab,
Qaylargadir ketmoqda odam.
Yo rab! Faqat yugurar odam –
Botin yoshdan yuragi ivib.
Yelkasiga mahkam yopishgan
Tashvish uni bormoqda quvib...

* * *

Sitam daryosi ko‘nglimni buzib yetmish, e voh, ko‘zga,
Bu daryodin demam, kechdim, bu suvlar o‘zgadir, o‘zga.

Ilohim, nurlaring jilvasig‘a qay damki cho‘lg‘onsam,
Vujudim larzaga tushg‘ay – shitobi so‘zgadir, so‘zga.

Musavvirdek rang-u dardlar aro telba talosh o‘ldim,
Ne tasvirlar yetib qo‘nmish mato ko‘ngilga – oq bo‘zga.

Qismatim shaklini oshkor eturg‘a yetmagay holim.
So‘fiy hol topmadim, yo rab! Qolibman beda’vo ro‘zga.

She’rlar yozarda mast o‘lsam, shiddatim bepoyon kechgay,
Umidkim, yetgaymen oxir seningdek bir dilafro‘zga.

* * *

Qor yog‘di. Dunyo oq.
Dunyo ozoda.
Dunyoni sayr etgim
Kelar piyoda.

Chalsam, dunyo – navo,
Havo – tiniq nay...
Qarshimdan sen chiqib
Keladiganday.

Qor yog‘di. Dunyo oq.
Dunyo ozoda.
Xotirani kezdim –
Dardim ziyoda.

Sirlar-u sehrlar
O‘rtadi meni…
Ne qilay? Qorda ham
Umrim yo‘q edi.

Yaxshi ko‘rish

Bu gul
tun bo‘yi uxlamagan.

Tun bo‘yi uringan.
Tun bo‘yi zahmat tortgan.

Oromimni
bir zum buzmagan.

Bir zum o‘sishdan
to‘xtamagan,
bir zum...

Mana,
gullab turibdi
tongda!

Meni xursand bo‘lsin, deb
derazamda gullab turibdi
bu gul...

* * *

– Siz tufayli yo‘llarim yorug‘, – dedi ayol, –
quyosh charaqlaydi uyimda,
ro‘zg‘orim ziyoga qorishgan,
dunyom – munavvar,
ko‘nglim – hamisha kunduz...

– Sen bergan yorug‘ni yo‘llarga
to‘shaganman, – dedi erkak, –
sen bergan quyoshni yoqqanman uyimizga,
sening ziyongga qorishgan ro‘zg‘orimiz,
munavvar dunyong ham o‘zingning tortig‘ing,
ko‘nglingni
sen bergan kunduzlar bilan yoritganman...

Shu tarzda
suhbat qurishdi
nurdan iborat
erkak bilan ayol...

* * *

Kunlar borar kuz tomon.
Havoda she’r bo‘ylari.
Jonga yog‘ar beomon –
Bargning vido o‘ylari.

Sukunatning navosi.
Vaqt o‘rtanib chalar nay.
Dilda she’rning havosi...
Yashab bo‘lmas yig‘lamay.

ZAMON JADIDLARI

TO‘RTINCHI KO‘PRIK

Bu tadbirkorning kutubxonasida o‘zbek va jahon adabiyotining eng yaxshi namunalarini ko‘rasiz. Chunki uning o‘zi kitobxon. Kitobxon bo‘lganda ham asarni “hididan ajratadi”gan kitobxon.

Bu haqda Farg‘onaning Qurbonqashqar mahallasida istiqomat qilib kelayotgan Arabboy Marahimovning o‘zidan eshiting.



Kutubxona qurish fikri asli rahmatli otamizdan chiqqan. 2000–2004-yillar edi. Otam hammamizni yig‘ib shunday dedilar: “Qishlog‘imizda ma’rifat tarqatadigan maskanlar qolmadi. Sizlar mana toparman-tutarman bo‘lib qoldinglar. Bir bino qursakki, birinchi qavati kutubxona bo‘lsa, ikkinchi qavatini bolalar savodxonligini oshirish markazi qilsak. Buning moddiy foydasini o‘ylamay, beg‘araz ma’rifat tarqatuvchi maskanga aylantirsak. Faqat birov pul to‘lab og‘rinib o‘qiydigan bo‘lmasin”.

Olti aka-uka otamiz aytgan tashabbusni qo‘llab-quvvatlab kengashdik. Qurilishni boshlash uchun o‘sha paytlardagi mahalla komitetining raisi Mo‘minjon Mahmudov orqali tuman rahbariyatidan qarorni oldik. Guzardagi yong‘in tufayli ayanchli ahvolga kelgan choyxona, sartaroshxona o‘rnini olib, qurilishni boshlab yubordik. U yerni tozalab, tekislab, birinchi qavatini ko‘tarib bo‘lganimizda, har xil mish-mishlar tarqalib qoldi. Shu joyni tekinga olib, o‘zlariniki qilishyapti, mahallaga tegishli binodan tijorat qilishadi kabi bo‘lmag‘ur gaplar oraladi. Otamiz odamlar joy uchun norozi bo‘lgan bo‘lsa, qo‘yinglar deganlaridan keyin qurgan binomizni ustini yopib, mahallaga idora qilib bera qoldik. Lekin otamning orzusi meni shunday aqlimni oldi. O‘zlari o‘tib ketgan bo‘lsalar ham bu o‘y miyamdan chiqmadi. Bir kuni tush ko‘rdim. Tushimda bir bino va uning ichi to‘la kitob. Otam kitoblarga termilib turibdi. Otamning tushimdagi qiyofasi bir umr esimdan chiqmas bo‘ldi. Shu kuni toshkentlik do‘stlar bilan yig‘ilishganimizda otam orzusi-yu, ko‘rgan tushimni gapirib berdim. O‘zim gapirib, o‘zim reja tuzdim. Do‘stlarim ham bu ishni amalga oshirishim kerakligini aytishdi.

Ertasi kuni aka-ukalar yig‘ilishib, gapni bir joyga qo‘ydik. Maslahatimiz bo‘yicha, o‘zimiz qurib, mahallaga topshirib ketgan binomizdan ikkita xonani so‘rab bordim. Qayta ta’mirlab, ikkita katta-katta xonani ajratib oldim. Lekin qiyinchilik boshqa bir yoqdan, kutmagan tomondan keldi. Endi kitobni eng ko‘p o‘qiydiganlar bolalar. Buning ustiga o‘zi asliyam maktabning yaqinligini hisobga olib shu joyni tanlagan edik. Lekin aynan bolalar adabiyotiga oid kitob topish masalasi muammo ekan. Ayolim bilan ikki-uch oylab bolalar uchun kitob izlab sarson bo‘ldik. Juda og‘riqli nuqta ekan bolalar adabiyoti. U yoqqa chopib, bu yoqqa chopib, 3000 ta kitob jamladik.

Xullas, kitoblarni terdik, bezadik. Kutubxonamiz ochilishiga Farg‘onadan taniqli shoira Enaxon opa, jurnalist akaxonimiz Tohirjon Hamroqulov, telejurnalist Sohibjon Alijonov do‘stimiz, O‘zbekiston xalq shoiri Anvar Obidjon, shoir Nodir Jonuzoq, qo‘shiqchi Shuhrat Daryo keldi. Katta tantana-yu dabdaba bilan ochdik. Lekin ich-ichimda bir tashvish bor edi. Nagadir, shu kutubxonaga odam kirarmikin, deb o‘ylardim. Ishga olgan kutubxonachimizga kalitni topshirib, Toshkentga ketdim. 20 kunlar o‘tkazib, xabar olish uchun kutubxonaga bordim. Ne ko‘z bilan ko‘rayki, kutubxonada bir donayam kitob yo‘q. Kutubxonachi qizdan: “Siz kitob so‘raganga o‘n beshtalab kitob bervormayapsizmi”, deb so‘rasam, u ham kulib: “Yo‘q, bittadan beryapman. O‘zimizning qo‘shni qishloqlardan ham kelib olib ketishyapti. Yana falon kitobni o‘qib topshirishsa, menga berasiz deb navbat yozdirib qo‘yishyapti”, deb javob berdi. Ko‘zimgayam, qulog‘imgayam ishonmadim ochig‘i.

Bu menga yana ham kuchli rag‘bat berdi. Demak, kitob fondini ko‘paytirish kerak. Qishlog‘imizda kitobga chanqoqlar ko‘p ekan. Ochig‘ini aytishim kerak, o‘zim ko‘p kitob o‘qisam ham, kitobning farqiga borsam ham shu kutubxonam tufayli ko‘chaga chiqsam bo‘ldi, kitob haqida o‘ylaydigan bo‘lib qoldim. Nima kitob olsam ekan, qaysi asarni hali o‘qishmadi, qaysi kitobga ehtiyoji ko‘p ekan odamlarni, deb o‘ylayveraman.

Keyinroq yana bir fikr keldi bu boshga. Otamning tug‘ilgan kunlari arafasida kutubxonamiz a’zolari o‘rtasida davomli tarzda “Kitobxon” tanlovini o‘tkazishni rejalashtirdim. O‘rinlar uchun sovrinlar belgiladik. Lekin shu yerda yana xom o‘ylabman. Ishtirokchilar juda ko‘p bo‘ladi, deb o‘ylamagan ekanman. Ertalab boshlangan tanlovimiz kechgacha davom etdi. Hech kim ketay demaydi. Odamlardagi kitobga qiziqish yana bir karra hayron qoldirdi meni. Zavqlanib ketib, tanlov g‘olibi o‘qishga kirib, shartnomaga tushib qolsa, bir yillik pulini to‘lab beramiz, deb



yuboribman. Tojdor balo sabab to‘xtab qolgan ishimizni yana davom ettirib, shu va’damni bajarmoqchiman. Faqat tanlov o‘tkaziladigan kunni 1-oktyabr – o‘qituvchilar kuniga ko‘chirmoqchimiz. Axir otam maktabda matematika fanidan 45 yil dars bergan tabarruk ustoz edi. Otamning orzusini o‘zimizning kitobsevarligimiz bilan ham chuqurroq his qilganmiz aslida.

Chor atrofda biror kutubxona qolmagan edi men kitob olmagan. Bolalikda mol-hollarimizni olib chiqib ketishda kitobni belga bog‘lab olardim. O‘rtoqlarim bilan mollar qozig‘ini o‘t-o‘lanli joyga qoqib, davra qurib o‘tirardik. Men ularga olib borgan kitobimni baland ovozda o‘qib berardim.

Shu joyda kitobga munosabatim haqida gapirib bersam. Qishloq joyda to‘y-ma’rakalarda sabzi to‘g‘rash marosimi bo‘ladi. Ana shunday marosimlarning birida sabzi to‘g‘raydigan taxta yetishmay qolib, bizning uydan uch-to‘rt kitobni olib, orqa tomonida sabzi to‘g‘ramoqchi bo‘lganida, otam tengi mahalladoshimni: “Ko‘zingiz ko‘r bo‘ladi kitobga sabzi to‘g‘rasangiz”, deb izza qilganman. Men kitobni ana shunday yaxshi ko‘raman. Eng yomon odatim – bir kitobni o‘qishni boshlasam, boshqa hamma ishlarim qolib ketadi. Bir necha tom jildli kitobni o‘qiyman deb haftalab uydan chiqmagan kunlarim bor. Menga qaysi kitobni yaxshi ko‘rasiz, deb savol berishmasa deyman. Uning o‘rniga qaysi asardan hech to‘ymaysiz, deyishsa to‘g‘riroq bo‘lardi. Qayta-qayta eng ko‘p o‘qigan kitobim – Stendalning “Qizil va qora” romanidir. Adashmasam shu asarni o‘n marta o‘qigan bo‘lsam kerak. Deyarli har yili o‘qiyman va har o‘qiganimda boshqa bir kitob o‘qiyotganday bo‘laman.

Dadam rahmatli bir paytlar: “Kitob – Uchko‘prikning to‘rtinchi ko‘prigi, u seni Toshkentga olib borib boradi”, derdi. Men esa, bugun: “Ey yoshlar, bu ko‘prik sizni keng dunyoga olib chiqadi”, deyman.

M. PIRNAFASOVA *yozib oldi.*

“NAVOIYNING OTINI OLTIN BILAN YOZAYLIK...”

Jadid navoiyshunosligi haqida

(Boshlanishi 1-sahifada)

Muallim Munavvar qorining fikrlari ham maslakdoshi qarashlariga yaqin. Maktab o‘quvchilarini juda qisqa muddatda savodli qilish, “jami’ luzumoti diniyani bildirish” o‘rniga “mushkul manzuma kitoblari”ni o‘qitib, bolalarning “umri azizini barbod” qilayotgani unga ma’qul kelmaydi. Shu bois u “Fuzuliy, Navoiy, Xo‘ja Hofiz va Bedil”larning kitoblarini tushunmaydigan go‘dak bolalarga o‘qitishdan foyda yo‘qligini yozadi. Ayni fikr-mulohazalarni yozgan Munavvar qori zamonasi johillaridan o‘zini himoya qilish maqsadida: “Mani so‘zimdan Fuzuliy, Navoiy, Xo‘ja Hofiz, Bedillar kabi ulug‘ zotlarni tahqir qildi, deb gumon qilinmasun”, deydi. O‘tgan ulug‘ zotlarga haqiqat mohiyatiga yetgan “Alloh taologa qurbat paydo qilgan kishilar” sifatida baho beradi.

Alisher Navoiy asarlari eski maktabda yoki navoiyxonlik davralarida mutolaa qilingani ma’lum. Turkistonda matbuotning yuzaga kelishi, tabiiyki, tarixda o‘tgan allomalarning ijodini kengroq targ‘ib va tashviq qilish, millat ulug‘larining hayot yo‘li, ijodiy-adabiy merosi bilan keng ommani tanishtirish imkonini berdi. Shu e’tibordan XX asrning dastlabki choragida Alisher Navoiy rasmini chizish, asarlarini o‘rganish, qayta nashr qilish va asosiysi, tavalludini nishonlashga hozirlik ko‘rildi.

Abdulhamid Cho‘lpon 1924-yili “500-yil” nomli maqolasida “Usmonli adabiyotining eng ulug‘ vakili bo‘lg‘on Fuzuliyni mashhur usmonli yozuvchisi Shamsiddin Somibek Navoiydan keyinga qo‘yib ko‘rsatadir. Mana bu ham Navoiyning birgina o‘zbek qavmi adabiyotida emas, umumturk xalqi adabiyotida ham o‘ziga yarasha joy olg‘onini ko‘rsatadir”, deb yozadi. Cho‘lpon Navoiyni yodga olish zaruratiga doir boshqa bir qiyosini ham aytadi: “Ruslar Pushkinni har besh yili uchun ham katta bayramlar yasaydirlar. G‘arbda esa unday bayramlar juda katta tantanalar bilan o‘tkaziladir. Bu to‘g‘rida gapni cho‘zib o‘ltirish hojat emas. Ko‘z bilan ko‘rganimiz ham yetib ortarliqdir”. Adabiy-ilmiy muhitdagi voqelik shunday bo‘lgach, umumturkiy adabiyotning ulkan namoyandasi Alisher Navoiyning xizmatlarini xotirlash davr ehtiyoji ekanini “o‘zbek bilim hay’ati e’tibori”ga havola qiladi. Ayni hay’at uchun “Navoiyning bosilmag‘on asarlarini topib, bosdirish”, “Navoiyning mukammal tarjimai holi”ni yozdirish, “Navoiyning shevalaridan terma bir asar tuzilib, nafis qilinib” nashr etish, “Navoiy nomig‘a yuqori o‘qish yurtlarining adabiyot-til fakultalarida o‘zbek talabalari uchun stipendiyalar” tashkil etish, “O‘zbekistonning poytaxtida Navoiyga haykal” o‘rnatish, “ba’zi bir o‘zbek shaharlarining ko‘cha ismlarini Navoiy oti” bilan nomlash kabi takliflar beradi. O‘tgan bir asr Alisher Navoiy shaxsiyati bashariyat adabiy tafakkuri tarixida beqiyos o‘ringa ega va o‘z davrida Abdulhamid Cho‘lpon bergan takliflar naqadar o‘rinli, hayotiy ekanini isbotladi.

Jadid munaqqidi Vadud Mahmud navoiyshunos sifatida XX asrning 20-yillarida “Ilmiy-adabiy vazifalar qarshisida”, “Alisher Navoiy”, “Navoiy uchun”, “Navoiygacha turk adabiyoti” kabi maqolalar yozdi. Bahs-munozaralarida ham Alisher Navoiy ijodiga ko‘p murojaat qildi.

“Ilmiy-adabiy vazifalar qarshisida” maqolasida Alisher Navoiy haqida: “Navoiy turk adabiyotining otasidur. Navoiy adabiyot dunyosida juda katta xizmatlar qilg‘on bir kishidur.

Navoiy turk tilining otasidur.

Navoiy buyuk adib, buyuk shoir, buyuk dohiydur. Faqat, qani uni biz taniymizmi? Uning xizmatlarini bilamizmi? Uning kim ekanidan xabarimiz bormi? Haligacha uning tarjimai holini bosmadik”, deb fikr bildiradi.

Alisher Navoiyning tarjimai holini yoritish jihatidan 20-yillar adabiy-ilmiy muhitida V.Mahmudning “Alisher Navoiy” maqolasi muhim o‘rin tutadi. Maqola “Muhiti”, “Tarjimai holi va tarbiyasi”, “Mutasavvufligi”, “Ilmiy, adabiy shaxsiyati”, “Navoiy bir mujiddir”, degan asosiy bo‘limlar va kichkina “Ilova”dan iborat. “Ilova”da maqola jurnalning Navoiy yubileyiga ishtiroki uchun yozilgani, “bunda ko‘p hollar va voqealar qisqa, ba’zan hatto bir satrda” aytib o‘tilgani ta’kidlanadi.

Bular hozirgi kun olimi va kitobxoni uchun oddiy ma’lumot bo‘lib ko‘rinishi mumkin, ammo “Navoiy kim edi?” singari savollar ko‘ndalang turgan o‘tgan asr 20-yillari uchun nihoyatda muhim edi. Albatta, millat faxri bo‘lmish daho shoirga taalluqli har bir sana va shaxsni aniqlash uchun V.Mahmud o‘nlab qo‘lyozma manbalarni o‘qib chiqishga majbur bo‘lgani, qalbidagi ezgu niyatlari unga tinchlik bermagani aniq. Maqola Alisher Navoiy yashagan muhit, uni dunyoga keltirgan shart-sharoit yuzasidan ancha teran tasavvur beradi: “Hijriy V asr ila X asr orasidagi besh yuz yillik davr – bu Xuroson va Movarounnahrda islom madaniyatining gullagan mavsumi edi. Beshinchi asr(lar) arabning yangi ruhiy ortishi bilan Eronning yer yuzida mumtoz mavqe tutg‘on davridir. U vaqtlar rub’i maskunning eng fayzli qit’asi va ma’lum dunyoning og‘izlarda doston bo‘laturg‘on qismi Iroq va Xuroson edi. O‘rta Osiyoning yangi tarixida eng boy va shavkatli davlatlar shu davrning mahsulidirlar.

Mamlakat obod, xalq esonlik ichida edi. Chunki rub’i maskunning boyligi shu o‘rtaga yig‘ilg‘on edi...



Mana shu zamonlarda edikim, islom madaniyatining yetishtirgan hakim va adiblari dunyoda yagonalik tug‘ini ko‘targan edilar.

Hakim Sanoyi, Mavlono Jaloliddin Rumiy, Fariddidin Attor, Abu Ali ibn Sino, Forobiy, Xayyom kabi eng buyuk va mashhur kishilar shu asrning yetishtirgan kishilari orasidadir. Bu o‘rta asr madaniyatining ikkinchi bir varag‘i bo‘lgan 8, 9, 10-asr turk dahosining asriy madaniyati o‘zlashtirilib ochilg‘on va yuksalgan bir davridir...

U davrda Temur, Yildirim, Bobir kabi buyuk qo‘mondonlar, Ahmad Yassaviy, Navoiy, Sulton Husayn, Fuzuliy kabi shoirlar, Ulug‘bek, Qushchi kabi hay’atshunos hakimlar yetishdilar”.

Navoiygacha bo‘lgan davrlarda arab va fors madaniyati gullab-yashnadi. Ko‘pgina turk olimlari o‘z asarlarini o‘sha tillarda yozdi. She’riyat olamida fors tilining bag‘oyat go‘zalligi va nozikligi tan olinar edi. Turkigo‘y shoirlar ham forsiyda biror asar bitish ishtiyoqida bo‘lar edi. Navoiyning “Devoni Foniy” majmuasi o‘sha an’analar, ishtiyoq va ixlos hosilasidir.

Alisher Navoiyni eslash va asarlarini targ‘ib qilish yo‘lida yozilgan “Navoiy uchun” maqolasida muallif ta’kidlaydiki, “Navoiyni tanimagan bir o‘zbek bo‘lmasa kerak. Eskilarimiz va eski maktablarimiz g‘azallari bilan, yangilarimiz va yangi maktablarimiz suratlari va shaxsiyatlari bilan tanishdirlar...

Navoiy turk tilini tirgizgan va chig‘atoy adabiyoti degan bir adabiy maktabning bu kungacha yashamog‘i sabab bo‘lgan bir kishidir. Shuning uchun uni tanimoq, uni taqdir etmoq butun turklar uchun bir vazifadir. Mana shu holni nazarga olib, bu kun turk dunyosining har yerida Turkiyada, Ozarbayjonda va bizda (O‘zbekistonda) uni eslab besh yuz yillik to‘yini o‘tkazmak istadilar”.

Vadud Mahmudning Alisher Navoiyning hayoti va ijodiga tegishli asarlari, fikr-mulohazalari jadid navoiyshunosligining teran bir sahifasi sanaladi.

Ma’lumki, hijriy-qamariy yil hisobiga ko‘ra Alisher Navoiy tavalludining besh yuz yilligi 1926-yili Ozarbayjonda keng nishonlanadi. Bokuda shu yili Bakir Cho‘bonzodaning “Navoiy tilchi”, Ismoil Hikmatning “Amir Alisher Navoiy”, Mirza Ibrohimiyning “Alisher Navoiyga fors adabiyotining ta’siri” va boshqa maqolalarni o‘z ichiga olgan 107 sahifali maxsus “Navoiy” majmuasi chop etiladi. Shuningdek, B.Cho‘bonzoda “Vaqfiya” asari uchun Navoiyning til ilmiga qo‘shgan hissasi munosabati bilan yozgan so‘zboshida “Navoiydan avval va so‘ngra hech bir turk “ilm va adab” bobida “odamiyatning bu qadar buyuk ta’sir va nufuz qozonganini bilmaydi”, degan juda muhim mulohazalarni bayon etadi. U “Ilmiy va madaniy masalalarimiz to‘g‘risida” maqolasida Alisher Navoiyni barchaning “adabiyot va she’rda ulug‘i va ustozi”, deb sifatlaydi. Ulug‘ shoirning “sof turkcha xalq tilida yozishga uringani”ga urg‘u beradi. Ayni damda, daho shoir ijodining geografik ko‘lamini biror olim Bakir Cho‘bonzodaga o‘xshab: “Bo‘sna-Hersek (ya’ni, Gertsovina)dan Qoshqargacha o‘lmas nom qoldirgan” tarzida original bayon qilgan emas.

Olim maqolasida ilmiy-madaniy vazifalarni, tashkil bo‘lajak muassasalarni ham bevosita Navoiy nomi bilan bog‘laydi.

“Man shunday o‘ylaymanki, bu xildagi yubileydan keyin:

1. Butunittifoq miqiyosida Navoiy o‘chog‘ini yuzaga chiqarish – maydonga keltirish kerakki, bu o‘choq butun turk-tatar shoirlarining uyushmasi bo‘lsin va uning o‘rnini tutsin;

2. Yana Ittifoq miqiyosida bir Navoiyot instituti maydonga keltirilsin va bu to‘g‘rida ruslarning o‘zgarishdan keyin shoir Pushkin tevaragida yashagan tashkilotlaridan o‘rnak olinsin. Mana shu bir qancha satrlarni yozib, bu masalalar to‘g‘risida fikrlarni bayon qilishlari taklifi yo‘lida butun qiymatli o‘zbek shoir, adib, olim va maorifchilariga murojaat qilamiz”.

Bokudagi turkologlar qurultoyi 1926-yil 5-martda bo‘lib o‘tadi. Bu qurultoyga O‘zbekistondan Elbek, Ismoil Sadriy, Ashurali Zohiriy, Rahim Inomov, Shokirjon Rahimiy, Nazir To‘raqulov vakil bo‘lib boradi. Haqiqatan ham qurultoyda Alisher Navoiyning 500 yillik yubileyi nishonlanadi. U yerda “Navoiy” nomli to‘plam nashr qilinadi. Olim Alisher Navoiyning “Vaqfiya” asariga “Navoiyning tili va tilchiligi haqida”, shuningdek, Husayn Bayqaroning “Devoni”ga “Bayqaro va devoni haqida” sarlavhali so‘zboshi yozadi. Unda: “Har holda turkiylardan chiqadigan yozuvchilar, Navoiy fikricha – boshqa tildan ziyoda o‘z tilinda yozmalidir. Holbuki, hozirga qadar yetishgan turk buyuklari ko‘p ajnabiy tillar bilan, o‘z tillarini unutub, asarlar yozgan edilar”, “...Navoiy turk tilining – so‘zining siyosiy, ilmiy va urfiy ma’nosi-la – shuurli mudofe’idir (ongli himoyachisidir – B.K.)”, “Navoiyning o‘z yozganlaridan, kerak bo‘sa boshqa bir ko‘p manbalar bergan ma’lumotdan anglashildig‘ina ko‘ra, Navoiyning chig‘atoy adabiyotiga doir ochgan yo‘lini ham himoya va tashviq etgan Husayn Boyqaro hisoblanadi. Negaki Navoiy turkcha yozishning lozim va foydasiga oid keltirgan dalillar ichida Husayn Boyqaroga hayajon va minnatdorlik to‘la so‘zlarga ishora qiladi” kabi qimmatli fikrlar bor. Eng muhimi, Cho‘bonzoda Husayn Boyqaro devonini nashrga tayyorlash jarayoni xususidagi so‘zboshida: “Bu nusxa taniqli o‘zbek shoiri va adiblaridan Fitratning kitobxonasidagi nusxadan, bizning iltimosimizga ko‘ra, ko‘piya etilgan edi. Biz Fitrat orqadoshimizda ko‘rganimiz yozma nusxa – yozuvi jihatidan – juda ochiq, go‘zal bo‘lgani holda undan qilingan nusxa juda ibtidoiy bir yozuv bilan maydonga ketirmishdir. Bunga-da sabab bizim shoshganimiz bo‘lsa kerak. Har holda borincha buyuk zahmat sarf etib, biz uchun bu nusxani ko‘piya ettirgan Fitrat orqadoshga biz “Tashakkur. Sog‘ o‘l!” deyishga burchimizdir”, deb minnatdorligini izhor qiladi. Bunday o‘zaro qimmatli manbalar almashish, turkiy adabiyotni hamkorlikda o‘rganish Cho‘bonzoda va Fitrat kabi jadid olimlari adabiy-ilmiy xizmatlarining bir qirrasini tashkil etadi. Darvoqe, Abdurauf Fitrat ham Sharq mumtoz adabiyoti, xususan, Alisher Navoiy asarlari tadqiqi bilan alohida shug‘ullandi. “Adabiyot qoidalari” kitobidagi nazariy qarashlari bayonida Navoiydan ko‘plab misollar oldi. Shu bilan birga, o‘zbek mumtoz adabiyotidagi Adib Ahmad, Ahmad Yassaviy kabi ayrim adabiy shaxsiyatlar xususidagi maqolalarida ham Alisher Navoiyga murojaat qildi. “Navoiyning forsiy shoirligi ham uning forsiy devoni to‘g‘risida”, “Xamsa”ning “Farhod va Shirin” turkumi, jumladan Navoiy dostoniga xos individual jihatlar haqida maxsus maqolalar yozadi. Ulkan adabiyotshunos Fitratning bunday asarlari jadid navoiyshunosligida o‘z o‘riniga ega, albatta.

1927-yili “Navoiyning yubileyi va tarjimai holiga yangi bir sahifa” maqolasini yozib chiqqan Ashurali Zohiriyning O‘zbekistonda o‘tkazilgan Navoiy anjumanidan ko‘ngli to‘lmaydi.

Ismoil Hikmatning “Navoiyda lirizm” maqolasi badiiy adabiyotga adabiy-estetik nuqtai nazardan yondashuvlar jarayoni boshlanganini ko‘rsatadi. “Sharq adabiyotida lirizmning yashag‘oni va tadbiq bo‘ling‘on eng jonli soha “g‘azal”lardir.

Navoiyning asarlarini ham tadqiq etsak, bir necha g‘azallar ko‘ramiz.

To‘rtta buyuk devonig‘a bolalig‘idan beri hislarining, hayajonlarining tarjimonlari bo‘lg‘on g‘azallarini qayd etgan Navoiy, shubha yo‘qki, san’atkor bo‘lg‘oni qadarda lirik bir shoirdir.

Yozg‘on g‘azallarining hammasi bir quvvatda, bir xosiyatda bo‘lmag‘onlig‘i va bo‘lmaslig‘i ham oshkoradur. Faqat ichida atrofli bir qalbning, yaralik bir yurakning, hijronli bir siyna-ko‘ksining yashag‘on juda jonli, juda hazin she’rlari bordir”. Maqola tarkibida Navoiyning bir qancha g‘azallari va ularning tahlili beriladi. Qolaversa, muallifning: “Jild-jild she’rlar yozgan bu buyuk turk shoirining qudratini, san’atini, tilini tadqiq etmak, tekshirmak bir vazifa ham bir sharafdir”, degan gapi hozirga qadar qimmatini yo‘qotgani yo‘q. Olimlar Alisher Navoiyning badiiy ijodda, poetik san’atda erishgan cho‘qqisi sari intilish bilan mashg‘ul. Ammo Navoiy cho‘qqisini zabt etish qiyin. Buning uchun esa “Kerak sher oldida sher jangi”. Zotan, vazifa sharaflidir.

“Maorif va o‘qitg‘uchi” jurnalida (1928-yil, 5–6-son). F. Rahmonning “Navoiy” maqolasi bosiladi. Bu ham davr jurnalxonlarini Alisher Navoiyning tarjimai holi bilan tanishtirish yo‘lidagi xizmatlar sirasiga kiradi. Unda Navoiy davriga, turkiy til mavqeiga, shoirning bolalik va yoshlik yillariga, ustozlariga, asarlari ko‘lamiga e’tibor beriladi. “Sultonning o‘g‘li Badiuzzamon va boshqa beklar tomonidan Boyqarog‘a isyonlar bo‘lg‘onida Alisher har vaqt aralashar va janjallarni bitirar, doimo hukumatning eng qiyin ishlariga buyurilar edi”. Bunday dalillar Alisher Navoiyning ijtimoiy-siyosiy mavqeini ko‘rsatadi. Maqola yakunida: “Navoiy shoirligi, asarlarining ko‘pligi va muhimligi bilan birinchi o‘runda turadirg‘on adiblardandir. Adabiyotdan boshqa ilm va fan dunyosig‘a ham buyuk ahamiyat bergan. Yozg‘on va yozdirg‘on tarixlari va “Muhokamat ul-lug‘atayn”i ochiq isbotdir...

Fuzuliyning “Layli – Majnun”i bilan Navoiyning “Layli – Majnun”ini solishtirib ko‘rsak, Fuzuliy she’riga ohang berishda Nizomiyga yeta oladi, chiroyliq-chiroyliq lavhalar berishda undan Navoiy ustunliq qiladir”. Maqoladagi bunday qiyoslarning ham o‘z asosi bor. “Navoiyning turk adabiyotida to‘la bir xazina qo‘yib” ketgani isboti o‘laroq shoirning yigirmadan ortiq asarlari ro‘yxatini keltiradi.

Muallif maqolani yozishda tarixiy kitoblar, shuningdek, Alisher Navoiyning o‘z asarlaridan zarur ma’lumotlar oladi.

Alisher Navoiy rasmi masalasini ham jadidlar muhokama qilishadi. 1919-yili “Chig‘atoy gurungi” tomonidan matbuotda shoir rasmi e’lon qilinadi. Biroq ko‘pchilik ziyolilar uni o‘zlari tasavvuridagi Alisher Navoiyga o‘xshamasligini aytishadi. “Bir rasmini chizib chiqarg‘on bo‘lsak ham asliga uncha muvofiq emasdur” (V.Mahmud fikri). Shuningdek, Laziz Azizzodaning xotirlashicha, Botu uni “Xayoliy bir surat bo‘lsa kerak, chunki bu rasm, qiyofat-ul bashar(fizionomika)da aytilishga ko‘ra, nozik tabiat, hassos, zarif va basiratli odamning suratiga o‘xshamaydi. Semiz, beg‘am, dudog‘i qalin, barcha narsaga loqayd qaraydigan shaxsni eslatadi”, deb baholaydi.

Botuning ulug‘ shoirga hurmati yuksak bo‘lgani uchun ham 20-yillarda “Navoiy”, degan maxsus bag‘ishlov yozadi. Unda Alisher Navoiyning ona tilga muhabbati bayon etiladi. “Bizning til ham boy tildir”, degan g‘oya she’r asosida turadi. Bolalarga Navoiyni tanitish yo‘lida yozilgan bu she’r shoirni ardoqlashga da’vat bilan yakunlanadi: “Navoiyni sevaylik, Navoiyning otini Oltin bilan yozaylik”. Tabiiyki, bunday she’riy misralar o‘z-o‘zidan maydonga kelavermaydi. Bugun Alisher Navoiyga bag‘ishlovlar yozish oddiy bir holga o‘xshaydi. Ammo Botu zamonaviy shoirlar orasida Navoiyga ilk bag‘ishlov she’r yozadi. Bu xususda akademik Naim Karimov ta’kidlaydi: “Botu – yangi o‘zbek she’riyati tarixida Navoiyga bag‘ishlangan birinchi she’rning muallifi. Ulug‘ o‘zbek shoirining katta xizmatlaridan biri, uning nazarida, fors tili soyasida qolib kelayotgan o‘zbek adabiy tilida she’riyat durdonalari yaratib, uning forsiydek go‘zal va boy til ekanini asoslab berganida edi”.

Kuzatganimiz bir qancha jadid ziyolilarining Alisher Navoiy ijodi haqida yozgan maqolalari navoiyshunoslik tarixi uchun muhim.

Xulosa qilib aytganda, Alisher Navoiy hayoti va ijodini maktablarda o‘qitish muammolari jadidlar tomonidan o‘rtaga qo‘yildi. Ikkinchidan, jadid ziyolilari Alisher Navoiy fenomenini yuksak martabalarga ko‘tarib, bashariyat oldidagi tarixiy xizmatlariga to‘g‘ri baho berishdi. Uchinchidan, Alisher Navoiy hayoti va ijodini targ‘ib etish, adabiy biografiyasini atroflicha yoritish ham jadid navoiyshunoslari zimmasiga tushdi. To‘rtinchidan, jadid navoiyshunoslari orasida o‘zbek olimlaridan tashqari turk, ozarbayjon, qrim-tatar millatiga mansub olimlar ham bor.

Bugun global olamda navoiyshunoslik fan tarmog‘i dunyo miqyosiga chiqdi va bu adabiy-nazariy hodisaning ayni holatga kelishida, tabiiyki, jadid ziyolilari ham munosib hissa qo‘shdilar.

Jadidlar muhitidan boshlangan Alisher Navoiy hayoti va ijodini tadqiq etish, asarlarini nashr qilish, nomlari bilan turli muassasa, ko‘cha va kutubxonani atash ishlari XX asrda davom etdi. Bugun shu ezgu ishlar davomi o‘laroq, o‘zbek va dunyo olimlari Alisher Navoiy badiiy-estetik olamini o‘rganmoqda. Noshirlar asarlarini o‘girib nashr qilmoqda.

Shu mulohazalar davomidan yangi bir taklif-tashabbus ham xayolga keladi. Dunyoning qator mamlakatlarida olmonlarning Gyote, inglizlarning Shekspir, turklarning Yunus Emro, xitoylarning Konfutsiy nomlari bilan bog‘liq institut va markazlar mavjud. O‘zbekiston elchixonalari faoliyat yuritib turgan xorij mamlakatlarda Alisher Navoiy institutini tashkil etish hayotiy zarurat sanaladi. Globallashgan dunyoda bunday milliy-madaniy markazlar vositasida insoniyat shuuriga, axloqi va dunyoqarashiga go‘zal sharqona umuminsoniy qadriyat va fazilatlar taqdim etish mumkin, albatta.

Bahodir KARIM,
filologiya fanlari doktori,
professor

ADABIY DO‘STLIK – ABADIY DO‘STLIK

KO‘NGILDOSHLIK

Ikki buyuk alloma, ikki benazir shoir va mutafakkir – hazrat Abdurahmon Jomiy bilan hazrat Alisher Navoiy o‘rtalaridagi pir-muridlik, ustoz-shogirdlik, do‘stlik va ilmiy-ijodiy hamkorlik munosabatlari butun olam ahliga saboq bo‘lgulik ulkan hodisadir. Bu ko‘ngildoshlik aloqalari ikki aziz zotning bir-birlariga yo‘llagan xatlari – munshaot va ruq’alarida ravshan namoyon bo‘ladi.



Hazrat Navoiy o‘zlariga kelgan barcha maktublarni, xossatan, hazrat Jomiyning xatlarini jamlab, bir to‘plam tuzganlar. Mazkur maktublardan hamda hazrat Navoiyning “Munshaot” asaridan ma’lum bo‘ladiki, Sharq adabiyotida maktubnavislik odobi va madaniyati XV asrdayoq kamoliga yetgandir. Agar bunga o‘xshash muloqotlar o‘sha asrda boshqa millatlar adabiyotida yuz ko‘rsatsa edi, ular buni dunyoga ovoza qilgan bo‘lar edilar.

Mavlono Jomiy maktublarining ko‘pi hojatmand shaxslarning manfaati uchun yozilgan arizalar tarzida bo‘lib, garchi sodda tuyulsa-da, ular orqali muallif hazrat Navoiyga ulug‘ vazir va davlat arbobiga ko‘rsatiladigan hurmat-ehtiromni ko‘rsatadilar. Maktublardan Mavlono Jomiy doimo jamiyat hayoti bilan hamnafas yashagani, davrning hamma sohalariga faol aralashgani, masalani katta yoki kichik deb ajratmasdan, har bir ishni muhim sanagani, inson taqdiriga befarq bo‘lmasdan, o‘zlariga murojaat qilgan har bir shaxsning hayotiga jonkuyarlik bilan yondoshgani anglashiladi. Bir so‘z bilan aytganda, mazkur maktublarda muallifning avvalo “Insonlarning eng yaxshisi insonlarga (ko‘proq) manfaati tegadiganidir”, degan muborak hadisga go‘zal holda amal qilgani, ikkinchidan, Naqshbandiya tariqatining ulug‘ shiorlari bo‘lmish “Ko‘ngil Eshda, qo‘l ishda”, “Zohiran xalq bilan, botinan Haq bilan” qoidalariga chiroyli rioyat etganini kuzatish mumkin.

Marhum olim Asomiddin O‘rinboyevning Moil Hiraviy ishtirokida tuzgan “Nomahoyi dastnavisi Jomiy” (“Jomiyning qo‘lyozma maktublari”) kitobi XX asarda Kobulda nashr etilgan. Yana Asomiddin O‘rinboyev maktublardan bir qismini rus tiliga tarjima qilib, “Письма-афтографы Абдаррахмана Джами из “Альбома Навоий” (“Abdurahmon Jomiyning “Navoiy albomi”da jamlangan maktub-dastxatlari”) nomli kitobda (1982) nashr ettirgan hamda xatlarning arabcha yozuvdagi nusxasini kitobga ilova qilgan. So‘ng taniqli olim Mahmud Hasaniy “Jomiy va Navoiy” kitobida bu xatlardan bir qanchasini o‘zbek, tojik va rus tillarida (1989) nashr ettirdi. “Navoiy albomi”dagi xatlarni to‘liq va sifatli tarjima qilib nashr etish – XV asr maktubnavislik san’atini tadqiq etishda, ikki buyuk mutafakkir hayotining jamiyat hayoti bilan bog‘liq qirralarini o‘rganishda, xat janridagi ulug‘ odob va amaliyot odoblarini hayotga tatbiq etishda beqiyos ahamiyatga egadir.

Mavlono Abdurahmon Jomiyning hazrat Alisher Navoiyga yozgan maktublari orasida sulton Mirzo Ulug‘bekning benazir shogirdi, buyuk alloma Ali Qushchi haqidagi uchta maxsus xati bor. Chamasi, bu maktublarning birinchisida Ali Qushchining Rumga (bugungi Triyaga) ketish voqeasiga ishorat bor.

Mirzo KENJABEK

537-maktub

Hojatmandlik izhoridan so‘ng arzimiz shulki, janob Mavlono Alouddin Ali Qushchining ahli oilasi Samarqanddan (Hirotga) keldilar va u zotning (ya’ni Ali Qushchining) orqasidan bormoqchilar. (Ular) yo‘l yorlig‘iga muhtojdirlar. Sizdan iltimos shulki, inoyat ko‘rsatib, bir harakat qilsalar, chunki ular tezroq (otalariga) yetib olishni istaydilar. Tavfiq rafiq bo‘lsin!

Faqir Abdurahmon Jomiy

233-maktub

Hojatmandlik izhoridan so‘ng, arzimiz shulki, Mavlono Alouddin Ali (Qushchi) qayerga borsalar, (odamlar) u kishiga nisbatan hurmat va ehtirom ko‘rsatishni o‘zlariga vojib deb bilishlari, uning xesh-aqrabolariga hech bir vajhdan to‘sqinlik qilmasliklari va ulovlarini tortib olmasliklari haqida bir yorliq chiqarilishini iltimos qiladilar. Umidimiz shulki, o‘zlari inoyat ko‘rsatib, bu borada bir harakat qilsalar. Tavfiq rafiq bo‘lsin! Vassalom!..

Faqir Abdurahmon Jomiy

350-maktub

Hojatmandlik izhoridan so‘ng, arzimiz shulki, janobi Mavlono Alouddin Ali Qushchi, ilgari arz qilganimizdek, ijozat so‘rash borasida (bizni) juda qiyin-qistovga olyaptilar va ko‘ngillari qattiq ranjiganini ko‘p izhor qilyaptilar. Iltimos shulki, inoyat ko‘rsatib, shunday qilsangizki, unga ijozat tezroq berilsa! Vassalom!

Faqir Abdurahmon Jomiy

“QISMAT SHAFQAT QILGANDA EDI...”

Boshlanishi 1-sahifada

Badiiy asarning bosh xususiyati shu – o‘quvchida ijobiy, salbiy, hissiy-emotsional fikr uyg‘otish. Xurshidning bu galgi uslub-manerasida asar qahramoni va muallifning fikrlari qorishib ketgan, bir-biridan ajrata olmay ham qolasiz. Mana, dastlabki misol: “Chorsu bozoridan chiqib, uyi tomon yo‘l olgan Abdulla (Qodiriy) dam “Mushtum” muharriri xonasida bo‘lgan sermunozara mashvaratni o‘ylab ketar, dam boyagina bozorda o‘z ko‘zi, o‘z qulog‘i bilan ko‘rgan-tinglagan hangomalarni qay yo‘sinda qog‘ozga tushirish yo‘lini izlardi. Xalq biladi, aytadi, yozmaydi, xolos. Biz esa xalqning bilganini, aytganini izlaymiz, topamiz, eshitamiz va u(lar)ni qog‘ozga ko‘chirib, xalqning o‘ziga o‘qitamiz. Mardum o‘zi bilgan va aytib yuradigan gaplarni o‘qigani sayin matbuotga qiziqishi ortadi, qo‘lma-qo‘l qilib o‘qiydi”.

Bu gaplar kimga tegishli? Ochiq va achchiq maqolalari ulusga ma’qul bo‘layotganini his eta boshlagan Qodiriygami yoki bugungi matbuotimiz muammolarini jiddiy o‘rgangan, xususan, gazeta-jurnallarimiz nega qo‘lma-qo‘l bo‘lib o‘qilmayotgani, nomdor gazetalar nega endi xalq bilib-ko‘rib turgan muammolar, ma’naviy aynishlar, el-yurt mulkini o‘marayotganlar xususida yozmayotganidan tashvishlanib, biz muharrirlarning burniga shedrinona musht tushirayotgan Xurshidgami?

Bitta chertkiga har qanday burun dosh bera oladi, ammo u ko‘payib ketsa-chi? Mana, o‘qing: “Odamlarni gazit-jurnalga jalb etishda maqsad-maslak bo‘lmog‘i darkor. Quruq gazitxonlik-jurnalxonlik bilan ish bitmaydi. Basirat ko‘zlarini ochmoq lozim ularning. Qandoq hayot kechirmoqdalar, inson qavmi aslida qandoq yashamoqqa loyiq – biladilarmi shuni ular?” Yana: “Abdulla Munavvar qorining “Taraqqiy” gazetida bosilgan maqolasini yodga oldi. Xo‘b yozgan, topib yozgan, anglab yetarmikanlar degan niyatda achchiq, qilichning tig‘idek o‘tkir yozgan – bu dunyoga nima uchun kelgonini bildirmoqlikni ko‘zlamoq zarur, bilsin axir, odamlarimiz! Bilsin, bilsin, ko‘zlar ochilsin! Yo‘q, yana bir karra, o‘n karra yo‘qkim, “...bilmaslar, bilmaganlarini ham bilmaslar... Buyuk padarimiz Behbudiy hayotini, umrini, jismi jonini gumrohlar boshi uzra mash’ala o‘rnida yoqdi – bildilarmi? Munavvar qori, mavlono Fitrat, Tavalloni taniydurlarmi biz jurnalxonlikka da’vat etayotgan qavm?”

Fikr keladi: milliy matbuotimiz bosib o‘tgan tikonli, kundali yo‘llarni, havo o‘tmas panjaralarni, Furqatni, Hamzani, Zavqiy domlani, hech bo‘lmasa so‘nggi jadidlarimizni bugun davriy nashrlarga olazarak ko‘z tashlayotgan, g‘aroyib bashoratlari bilan mashhur bo‘layotgan “mutaxassis”lar biladilarmi, odob bilan aytganda, dutor chertishni bilmagan kishi dutorchi qizlar ansambliga rahbar bo‘lsa, o‘sha kunning o‘zida kulgiga qolishidan xabarlari bormi?

Bir tomondan – bugungi adabiyot, san’at, matbuot, ma’naviy-ma’rifiy nashrlar inson bu yorug‘ olamga nima uchun kelgani, qanday yashamoqligi, yerni – yer, suvni – suv, havoni – havo, insonni – inson maqomida saqlab qolish (Chingiz Aytmatov) global vazifa bo‘lib qolgani xususida fikr yuritmoqdami? Ikkinchi tomondan – bosma nashrlarning tanazzuli haqida chirillayotganlar millatni yana qanday balolarga giriftor qilishmoqchi? Olis o‘tmishda ilmning Elbrusdan baland cho‘qqilariga ko‘tarilib, “Ovrupo muallimlari” maqomiga yetishgan ajdodlarimiz merosidan bugun kimlar ko‘proq foydalanmoqda: o‘zimizmi yo boshqalarmi? Milliy tafakkurdan mosuvo bo‘lib, milliy taraqqiyot yo‘lini yo‘qotganimiz, dinimiz oyoqosti bo‘lgani, “oq oltin” yetishtiruvchi oltin qullarga aylanganimiz yodimizdami? Tavallo bobo kuyunib yozganicha bor:

Ilm-u ma’rifat ham hunardan
qoldi mahrum bizni xalq,
Ma’rifatsizlik balosiga
yo‘liqg‘on bizni xalq.

“Ofarin, domullo Tavallo, ofarin! Achchiqroq, chimdibroq aytavering emdi haq so‘zni, Usto, achchiqroq”, ko‘nglidan o‘tkazadi Qodiriy”.

Achchiq yozish izsiz ketmaydi. Achchiq haqiqat kimningdir ko‘zini ochadi, fikri uyg‘onadi, tafakkuri bo‘y ko‘rsata boshlaydi. Yo‘lchi kabi (“Qutlug‘ qon”) bozorning o‘rtasida, “yuqoridan pastga, pastdan yuqoriga o‘rmalayotgan” odamlar orasida jism-u jonini taroziga qo‘yib, “Tokaygacha mundoq yashaymiz”, deya cho‘qmordek mushtini baland ko‘taradi. Bosqinchi bu mushtdan vahimaga tushadi, vujudini qo‘rquv egallaydi. “Elni tobe olomon darajasida ushlab turmoq, boshida qamchi o‘ynatmoq, oyog‘ini tushovlamoq zarur”, degan fikrga keladi. Mana, eshiting. “Yolg‘iz” qissasi qahramonlaridan biri Karim qori bo‘lim melisa idorasiga kelganida o‘ris zobiti bu yerga yig‘ilganlarga shaharda va, ayniqsa, bozor ichi va uning tevaragida osoyishtalikni saqlash muhimligini shunday tushuntiradi: “Bozorda olomonning to‘planishiga yo‘l qo‘ymaslikni eplolmayapmiz. Salomlashsin-omonlashsin – ruxsat, sotsin-olsin – ruxsat, istaganicha tilanchilik qilsin – ol, bunga ham ruxsat, yo‘q, bu xaloyiqni nima jin urgan – bilmadim, sal chalg‘isang – to‘dalashadi, shovqin ko‘taradi, qo‘yib bersang, to‘xtamay bir-birini xabarlaydi. Savdogaridan, lo‘ttibozidan, qalandaridan gadosigacha siyosatdan so‘qiydi, siyosatdan... To‘dalashma. (Karim qoriga qarab) Haromni nima deydi musulmonlaringiz? Haromni... m-mak, makruh! Topdimmi?! To‘dalashma, gazetxonlik – makruh, deb fatvo chiqaring, olam gulistan! Qutulasiz-qo‘yasiz” (Yo tavba, bugun bir yosh rahbar “She’rxonlik, g‘azalxonlikni kamaytiraylik” desa, ikkinchisi “Navoiyning she’rlarini (g‘azallarini demoqchi) tizzasi yirtiq jinsi shimda ham o‘qisa bo‘laveradi”, uchinchisi “Ona tilini bundan buyon yengilroq o‘qitamiz, asosiy e’tiborni xorijiy tillarni o‘rganishga qaratamiz”, deb turibdi – uzviylik bormi, bor).

Zobitning ko‘ngli to‘lmay yanada jo‘shadi: “Turon” kutubxonasiga tanda qo‘yganlar, ertadan kechga dovur qiroatdan (aslida mutolaadan, ilm olishdan) bosh ko‘tarmaydiganlar bilan alohida shug‘ullanurmiz. Lekin kutubxona devoriga, ya’ni ko‘chaga-ya, gazit-jurnal ilish qaysi xomkallaning ishi? Qaysi dushmanning ishi? Qo‘poruvchilik bu! Kontrrevolyutsiya!.. O‘z ko‘zim bilan ko‘rdim, gala-gala, ochirit deysan! Bittasi ovozi boricha o‘qiyapti, qolganlar xa-xa-xo, xa-xa-xo! Savodsiz olomonni yig‘ib olib, kimning ustidan kulyapti, kimlarni mazax qilyapti ular...”

Xalqning xabardor bo‘lishidan, haqiqatni anglashidan, tomirlarida qanday qon oqayotganini bilishidan kim qo‘rqadi – bosqinchi qo‘rqadi. Oxir-oqibat shu qo‘rquv uning o‘zini halok qiladi.

Shu satrlarni qog‘ozga tushirayotganimda, palata devoriga qadalgan “tilbuzar”-da (xalq bugun ayrim telekanallarni “dilbuzar” ham deydi) andijonlik hofiz Ilhom Jo‘raevning konserti boshlandi. Qog‘ozdan bosh ko‘tarib, “O‘zbek” nomli qo‘shiqni miriqib tingladim.

Bug‘doylarga to‘lsin uylaring, O‘zbek,
To‘ylaring to‘ylarga ulansin, O‘zbek.

Zo‘r niyat. Ammo menga qo‘shiq matnining boshqa bir satri ta’sir qildi:

Zanjir uzgan qulni to‘xtatib bo‘lmas...

Yon daftarimga bir vaqtlar yozib qo‘ygan fikrni esladim: “Qulligini bilmagan qul – eng yaxshi qul”.

Biz qullik zanjirini uzgan ozod elmiz, tariximiz, ong-shuurimiz soxtalikdan tozalanayotgan, imon-e’tiqodimiz mustahkamlanayotgan, ilmiy salohiyatimiz jahon kengliklarini yana yorita boshlagan elmiz. Shu yo‘lda sobit turaylik, chalg‘imaylik, fitna-fasodga, minnatli marhamatlarga uchmaylik. Yangi O‘zbekistonning yangi xalqchil siyosatiga sadoqatli bo‘laylik. Hammasi o‘zimizga, aql-idrokimizga bog‘liq.

“Yolg‘iz”ning tili – alohida mavzu. “O‘tkan kunlar”ning o‘tmagan tili” maqolamda bu xususda bilganlarimni aytganman. Meni hozir ko‘proq “og‘zi beparhez, Buxoroi sharifda tahsil ko‘rgan, Eshonguzar mahallasidan tortib Samarqand darboza deparasigacha izzat-hurmati baland, imomlik obro‘yiga ega” Isoq domlaning qarashlari qiziqtiradi. Bu oqsoqolning fikricha, yozg‘uchi degani “...yo‘q yerdagi gaplarni topib-termachlab, gazit-jurnalga chiqarib, odamlarni maymunga oshno qiladi, so‘ng musht urib ag‘daradi”. Mayli, bu – “Mushtum”ning o‘tmish yillardagi zalvorli “bolg‘asi” ta’sirida shakllangan qo‘ng‘izona bir qarash-da. Ammo mana bunisiga nima deysiz: “Uldurki, zamona oxir bo‘ldi, in-im!.. Hamma yoq rasvoi raddi balo! Nima ko‘p – huda-behuda ish ko‘p. Yozvossanmi?.. Sharorat peshalari avjida, bizzi faqirlar esa xorlikda. Nauzibillah, nauzibillah!.. Kiyimlar etaksiz, sochlar belga yetadi. Bunga ko‘nsang erkaklar xotun, xotunlar esa erkak qiyofasiga kirib bo‘ldi. Aql ketdi, aql. Aql ketdimi, qulog‘ingda bo‘lsin, bola, borar yo‘limiz, qilar ishlarimizning oyog‘i arshi a’loda – boshi qora tufroqda deyaver!”



Har yomonda bir omon bor, deydilar. Isoq domla, o‘zi bilibmi-bilmaymi, fikrlashdan to‘xtagan, kerakli yumushlar qolib, ahamiyatsiz ikir-chikirlarga o‘ralashib qolgan jamiyatning ayanchli taqdiri xususida so‘zlamoqda. Fikr jamiyatni, davlatni, odamlarni, yoshlarni, xotin-xalajni harakat holatida, izlanish-u intilishda ushlab turadi. Fikrsizlik taraqqiyot yo‘llarini yopadi. Taqataq yopadi, arzingni kimga aytasan? Ming shukurki, bugun jamiyatda fikr uyg‘oqligi, ijtimoiy faollik muhiti yuzaga keldi, matbuotda jur’at paydo bo‘ldi. Uni parvarishlamoq kerak.

Qissa bozor manzaralari bilan davom etadi. “Yana o‘sha eski, ko‘pchilikka tanish g‘ala-g‘ovur: opqoling-kepqoling, qo‘l tashlang, hoy, qani, hoy, mana, ho‘-o‘ kuchingdan, ho‘-o‘ tilingdan... To‘planma, qochib qol... tarqal, tarqal dedim haromi. Otaman, osaman, badarg‘a qilaman sartni bolasi...”

Bugun, shukurki, “To‘planma, tarqal, aql so‘qma, tilingni tiy, amaldorning ishiga aralashma, burningni ehtiyot qil”, degan dag‘dag‘alar yo‘q, aksincha, “Ey, toza palaklar, Vatan suygichmisiz, ish bilgichmisiz, fidojonmisiz, imon-e’tiqodingizga dog‘ tushmaganmi, unda vaqtni o‘tkazmay, to‘planing, uyushing, birlashing, safga turing, saflarni to‘ldirib, millatga xizmat qiling, ko‘ringki, ajdodlarning orzusi ushaladigan, olis-olislardagi, kecha-yaqindagi armonlar bahor nafasiga dosh bera olmay duv-duv to‘kiladigan, odam odam maqomida yashaydigan, umridan rozi bo‘ladigan zamon keldi, hurlik keldi”, degan xitoblar yangramoqda, nahotki eshitmayotgan bo‘lsangiz? Davlatimiz rahbari “Tanqidiy maqolalarni ko‘proq yozinglar, muammolarni dadil tahlil qilinglar, bizga yordam beringlar, ortingizda men turibman”, deb takror-takror aytmoqda. Gazetalarimizda suv ko‘p, suv bo‘lganda ham iste’molga yaroqsiz suv. Gazeta bo‘lib gazeta emas, axborot byulleteni deyishga til bormaydi – odamning yuzi issiq.

Abdulla Qodiriy “Mushtum”da e’lon qilgan “Yig‘indi gaplar” maqolasi uchun jonini fido qildi. Amir Umarxonning kanizi (o‘sha – bir emas, uch hukmdorni mahliyo qilgan kanizak) haqida boshlab qo‘ygan ro‘moni qo‘lyozmasiga mo‘ylovdor mirshablar moxorka o‘rab chekishdi, nosning tufugini o‘rab axlatga otishdi. Istiqloldan ikki yil avval adabiyot gazetasida tug‘ruqxonalarda chaqaloqlarni umumiy emizish haqida kuyunib yozganimizda taniqli rahbarlardan biri firqa yig‘inida maqolamizni, xuddi Julqunboy tarixini yaxshi biladiganday, “chuvrindi gaplar”, deb atadi.

“Yolg‘iz”ga qaytamiz. “Yig‘indi gaplar” bois jiddiy surishtiruv, g‘ala-g‘ovur boshlanadi: “Abdulla “Qaydan ham Komilning (“Mushtum” jurnali muharriri Komil Aliyev) ra’yiga yurdi?! Uning so‘ziga kirib, o‘qishni tashladi, tinib-tinchimas maqolanavisga aylandi... “Yig‘indi gaplar”ni bosilmasidan burun o‘qimagandim, deb tonib o‘tiribdi... Bir u emas, G‘ozi, Sanjar, Mirmuhsin, ularga qo‘shilib Ziyo ham gunohning barini bir ovozdan Abdullaning boshiga ag‘darib turishibdi. Ha, bir ovozdan!”

Alqissa, bu zamonlar ham o‘tdi. Ilohim, qaytib kelmasin. Kelmaydi ham. Ammo... bir narsa o‘tmadi, butunlay yo‘q bo‘lib ketmadi – bizda hamon qo‘rquv bor. Matbuotning maqsadini tushunmaslik, uni do‘st, hamkor, beminnat maslahatchi sifatida ko‘rmaslik, u bilan el-yurt manfaati yo‘lida jo‘rovozlik qilmaslik bor. Hamma illatlarning xamirturushi shu qo‘rquvda.

Teleko‘rsatuvlardan birida boshlovchi singlimiz har gal suhbatdoshidan nimadan qo‘rqishligini so‘raydi. G‘aroyib savol. Qo‘rquvdan men ham mosuvo emasman, ammo mendagi qo‘rquv – qo‘rquvning o‘zi emas, uning dahshatli natijasi.

Matbuotga qo‘rquv ko‘zi bilan qaraydiganlar birinchi navbatda o‘zini tanqiddan ihota qilishga kirishadi. Tanqiddan xoli sohalar, mavzular, hududlar, ba’zi hollarda – alohida shaxslar shunday paydo bo‘ladi. Yaqin o‘tmishimizning bunday “alohida”liklari qayta tirilmasligi kerak. Yangi siyosatning talabi shunday. Xalqdan hech narsa yashirilmasin, soxtakorlik, ko‘zbo‘yamachilik, shaxsiy “ishtaha”ning nahanglashuvi, davlat ichida to‘rt tomoni o‘rab qo‘yilgan, kirish taqiqlangan “orol”chalar paydo bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaslik zarur.

Biz bugun shu yo‘ldan bormoqdamiz: davlat rahbari, hukumat, parlament, matbuot, jamoatchilik, ijodkor ziyolilar, ustoz-u murabbiylar, yoshlarning fikri-zikrida shu maqsad. Ammo yagona to‘g‘ri yechim degani hamisha ham osonlikcha topilavermaydi, bahs-munozara, tortishuv, albatta, bo‘ladi. Yangi O‘zbekistonning yangi siyosati sabab mamlakat ijtimoiy hayotiga, faollik va mas’uliyat maydoniga kirib kelayotgan fidoyi, jur’atli vatandoshlarimizni amalda qo‘llab-quvvatlaylik. Shundagina fikrdan fikr unadi, najot yo‘llarining chiroqlari yonadi.

Shu jumlalarni bitar ekanman, “Yolg‘iz”ning 188-sahifasidagi bir raqamga ko‘zim tushib, tuyqus seskanib ketaman: “1937-yilning o‘zida matbuotda Abdulla Qodiriydek insonni yer bilan yakson qilishga qaratilgan ellikdan ortiq maqola bosilgan. Ellikdan ortiq, yana bir yilning o‘zida deng”.

Nihoyat, kitobning so‘nggi sahifasini ochaman, so‘nggi jumlani o‘qiyman: “Ayovsiz taqdir va ayanchli qismat shafqat qilganida edi, milliy romanchiligimiz Otabegi bo‘lmish Abdulla Qodiriy o‘zi tamal toshini qo‘ygan ayni shu yo‘sindagi ijodiy uslub an’analarini yanada rivojlantirgan, yana ko‘plab noyob va nodir asarlar yaratishi muqarrar edi...”

Agar biz bugun milliy parlamentimizdagi, hukumatimiz, vazirlik va idoralar tarkibidagi yosh jur’atlilarni, tili va dili birlarni, yangicha qarashlarni hech bo‘lmaganda, tushunishga harakat qilsak, bu bilan jamiyatda yuzaga kelayotgan oshkoralikni, davlatimiz rahbarining xalqchil siyosatini yanada mustahkamlagan, yangi deputatlik saylovlarida jur’atlilar safini yanada to‘ldirgan bo‘lamiz. Bunday qilmasak, katta-kichik burunlarimiz chertkibopligicha qolaveradi.

Ahmadjon MELIBOYEV

Boshlanishi 1-sahifada

MUQADDAS O‘CHOQ

Jadid mutafakkirlari xayriya jamiyatlari qoshida o‘quvchi-talabalar uchun kutubxonalar tashkil qilib, ularni zarur adabiyotlar bilan to‘ldirganlar. Bu ishda ayniqsa, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvar qori, Abdulla Avloniy, Hamza, Is’hoqxon To‘ra Ibrat, Sadriddin Ayniy, Sayid Islomxo‘ja kabi mutafakkirlarning faoliyatini alohida ta’kidlash kerak.

Mustaqillikning dastlabki yillarida atoqli olimlarimiz – professorlar Ozod Sharafiddinov, Naim Karimov, Begali Qosimov, adabiyotshunoslar Shuhrat Rizaev, Rahmon Qo‘chqor kabilar bilan birga jadid mutafakkirlarining doimiy maskani Eski Jo‘vadagi “Turon” (sho‘ro davrida “Oktyabr”, Mustaqillik sharofati bilan asl nomi “Turon” tiklangan) kutubxonasining katta qiroat zalida jadid mutafakkirlarining hayoti va ijodiga, sho‘ro davridagi fojiali qismatiga bag‘ishlangan turkum anjumanlar o‘tkazar edik. Bu anjumanlar televideniye orqali xalqimizga namoyish etilardi. Xalqimiz bunday ko‘rsatuvlarni katta mamnuniyat va intiqlik bilan kutardi. Keyinchalik bunday tadbirlarga Hamidulla Boltaboyev, Bahodir Karimov, Nurboy Jabborov kabi olimlar qo‘shildi. Vaziraxon Sobirova tadbirga kerak bo‘lgan hamma shart-sharoitlarni muhayyo qilib berardi. Bu fidoyi va zahmatkash inson uzoq yillar “Turon” kutubxonasiga rahbarlik qilgan, o‘zi jadid mutafakkirlari Sobirjon va Shokirjon Rahimiylar oilasidan edi.

“Turon” kutubxonasi 1913-yilda “Turon” xayriya jamiyati qoshida Munavvar qori Abdurashidxonov va Abdulla Avloniy rahbarligida ochilgan. Jadidlar tomonidan “Turon” nomining ona-Vatan timsoli sifatida tez-tez takrorlanib turishi bejiz emas: “Turon” xayriya jamiyati, “Turon” teatr truppasi, “Turon” kutubxonasi, “Turon” gazetasi... Buyuk mutafakkir Abdurauf Fitrat ta’biri bilan aytganda, “Turklikning muqaddas o‘chog‘i – Turon!”

Shokirjon Rahimiy faoliyat doirasi nihoyatda keng pedagog-olim edi. Sho‘ro hukumatining dastlabki yillarida mazkur kutubxonaga rahbarlik qildi. U maorif va ilm-fan tashkilotchisi sifatida 1923-yilda kitob savdosi bilan shug‘ullanuvchi orenburglik Ahmad Is’hoqiydan yetti mingdan ortiq qo‘lyozma va bosma kitobni “Turon” kutubxonasi uchun sotib olishda bosh bo‘ldi. Mazkur kutubxona o‘tgan asrning 20–30-yillarida kamyob va noyob kitoblarga ancha boy bo‘lgan. Hatto uzoq-yaqindan chet el tadqiqotchilari kelib, mazkur kutubxona fondidagi noyob manbalardan istifoda etganlar. Bu ishda Shokirjon Rahimiyning xizmatlari katta bo‘lgan. Davr o‘tishi bilan bunday noyob asarlar Sharqshunoslik ilmiy tadqiqot instituti kutubxonasiga, muayyan qismi esa Alisher Navoiy nomidagi Xalq kutubxonasiga o‘tkazilgan. Shu kunlarda mana shunday noyob “Turon” kutubxonasi qismati parokanda ahvolda.

Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan yangi tashkil etilgan “Jadid” gazetasining 2024-yil 1yanvar 1-sonida yetakchi jadidshunos olimlardan Bahodir Karimovning “Turon” jadid kutubxonasi bunyod etilsa...” nomli juda muhim va xayrli taklifi e’lon qilindi.

Avvalambor, “Turon” kutubxonasi joylashgan manzilga va uning atrofidagi muassasalarga e’tibor qarataylik. Eski Jo‘vaning boshida jadid ma’rifatparvarlariga ma’lum va mashhur, ularning ko‘plab darslik va o‘quv qo‘llanmalarini chop etgan G‘ulom Hasan Orifjonovning “G‘ulomiya” xususiy matbaasi joylashgan. Shu matbaaning chap tomonida Abdulla Avloniy va Munavvar qori Abdurashidxonov rahbarligida “Turon” teatr truppasi faoliyat ko‘rsatgan rus savdogari Vikula Morozovning saroyi (sovet davrida Yosh tomoshabinlar teatri binosi) joylashgan. Shu qatorda 10–15 qadam yurilsa, ko‘plab jadid ma’rifatparvarlari tahsil olgan 1-rus-tuzem maktabi, o‘sha binoda maktablar uchun o‘quv adabiyotlari do‘koni joylashgan. Uning qarshisidagi Mahsido‘zlik mahallasida “Turon” kutubxonasi va qiroatxonasi qad ko‘targan. Shu mahallada jadidlarning muntazam to‘planib turadigan Mirmulla, Mirmuhsin va ularning singlisi, ayollardan birinchi jadid jurnalisti Muborak va turmush yo‘ldoshi jadid shoiri Elbek – Mashriq Yunusovlar istiqomat qiladigan Shermuhamedovlar hovlisi ko‘zga tashlanadi. Biroz yurilsa, ancha e’tiborli Beklarbegi madrasasi (30-yillarda sho‘ro hukumati tomonidan buzib tashlangan) bor edi. Undan o‘tib, ozgina yurilsa, Chorsuga hamda Ko‘kaldosh madrasasiga chiqiladi. Shu ko‘chaning o‘ng tomonida Toshkentning mashhur va eng katta Eski Jo‘va bozori joylashgan. Bu joylar hamma vaqt Toshkentning eng gavjum maskanlaridan bo‘lgan. Aytish kerakki, jadid bobolarimiz kutubxonaga joy tayin etishda ham oqilona yo‘l tutganlar. Qarang: “Eski Jo‘va” bozori – tirikchilik manbai. “Turon” kutubxonasi – ma’naviyat maskani. Xalqimizning tirikchiligi savdo-sotiqsiz, oldi-berdisiz o‘tmaganidek, ma’naviy hayoti kitoblarsiz, kutubxonasiz o‘tishi mahol.

Hozirda yuqorida tilga olingan jadid bobolarimiz faoliyatini, kurashlarini, orzu-armonlarini eslatuvchi deyarli hamma manzillar o‘rnida zamonaviy muassasalar, madaniyat maskanlari qurilgan, eski shahar degan nomdan faqat rekonstruksiya qilingan “Eski Jo‘va” bozori qolgan. Sho‘ro mustamlakachiligi davrida ham Vatanimizning asl egalari yashaydigan va faoliyat ko‘rsatadigan qismi butunlay e’tibordan tashqarida bo‘lgan. Bu “Turon” jadid kutubxonasini endi xohlagan joyga qurish mumkin, degani emas, uni Toshkent shahrining hashamatli markaziga ham emas, shaharning biror chekkasiga ham emas (Toshkent viloyat kutubxonasi bo‘lsa ham), o‘tmishda jadidlar faoliyat ko‘rsatgan joyga qurish kerak. Bu joylarda jadidlar ruhi hamma vaqt barhayot! Shu kunlarda “Turon” jadid kutubxonasi Abdulla Qodiriy nomidagi ijod maktabi binosida vaqtincha faoliyat ko‘rsatmoqda. Xuddi shu atrofga “Turon” jadid kutubxonasini qurish maqsadga muvofiqdir. Bu atrof o‘tmishdagi jadid qadamjolariga juda yaqin bo‘lib, ko‘rinib turar edi. Nazarimda, bu yerda kutubxonabop joy ham yetarli. Talabalarga kutubxonaga qatnash Talabalar shaharchasidan ham, boshqa oliy o‘quv yurtlaridan ham qulay, bitta transportda 10–15 daqiqada yetib kelish mumkin.

Ikkinchidan, shu kungacha jadidlarning, ular yaratgan asarlarning to‘la ro‘yxati, hatto shahid bo‘lganlarning soni va ro‘yxati ishlab chiqilmagan. 30-yillardagi qatag‘on “Turon” kutubxonasini ham chetlab o‘tmadi. 1942-yilda kutubxona rahbari Rahimjon Ibrohimov va rahbar muovini, yetakchi bibliograf Akbar Dolimov aksilsho‘roviy ayblovlar bilan otib o‘ldirildi, mol-mulklari musodara qilindi, kutubxonaning faol xodimlari Ahad Tursunov va Asad Ubaydullayev 10 yil ozodlikdan mahrum etildi.

Ochilajak “Turon” jadid kutubxonasi zamonaviy kutubxonachilikning eng so‘nggi yutuqlariga to‘la javob beradigan darajada bo‘lishi, muhokama va kompyuter xonalari, ma’lumot olish uchun videotarmoq tashkil etilishi kerak. Jadidchilikda yaratilgan hamma asarlar, shuningdek, chet el jadidshunoslarining asarlari uchun maxsus bo‘lim ajratilishi, ularning koordinatlari ham bo‘lishi kerak. Ayniqsa, chet el jadidshunoslari bilan aloqa o‘rnatish imkoniyatlari yaratilishi kerak.

Uchinchidan, ma’lumki, jadid matbuoti vujudga kelgunga qadar ham usuli savtiya – tovush usuliga asoslangan yangi maktablar bilan an’anaviy mahalliy eski maktablar o‘rtasida keskin kurashlar, munozaralar davom etgan va davrning o‘zbek tilidagi yagona “Turkiston viloyatining gazeti”da o‘z aksini topgan. Ammo Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasidagi mazkur gazeta ko‘ngildagidek saqlangan emas: ba’zi bir sonlari saqlanmagan, ba’zilari qattiq shikastlangan, ba’zilari yirtib, ba’zilari qirqib olingan. Ularni aniqlab, Moskva, Sankt-Peterburg yoki Qozonda saqlanayotgan nusxalar asosida tiklash kerak. Jadidshunoslikka oid qo‘lyozmalarning katta qismi Sharqshunoslik ilmiy-tadqiqot institutining qo‘lyozmalar fondida saqlanadi. Iloji topilsa, ularni yangi ochilajak kutubxonaga olish yoki ulardan nusxa ko‘chirib olish maqsadga muvofiqdir. Sir emas, 130 yillik Rossiya mustamlakachiligi davrida ko‘plab nodir qo‘lyozma va bosma asarlar Sankt-Peterburg va Moskvaga tinimsiz tashib ketilgan. Ulardan, juda bo‘lmaganda, nusxalar olish kerak. Manbalarni chuqur o‘rgangandagina voqelikka haqqoniy baho berish mumkin bo‘ladi.

Kelgusida “Turon” jadid kutubxonasi, ayniqsa, Markaziy Osiyo xalqlari milliy uyg‘onish tarixini o‘rganishda xalqaro milliy markaz – Akademiya vazifasini bajarishiga to‘la ishonaman. Shu ma’noda, professor Bahodir Karimovning “Turon” jadid kutubxonasini tashkil etish haqidagi hayotiy taklifini qo‘llab-quvvatlayman.

Ulug‘bek DOLIMOV,
pedagogika fanlari doktori, professor

TOPILDIQ



Abdurauf FITRAT

NECHUN SEZMAGANSAN?

(Chig‘atoy gurungi)

Uchrag‘ach senga bulutdek o‘kurdim,
Izingdan tushub quyundek yugurdim.
Ozg‘ina turmading!

Yiroqda qolg‘ach, quyoshdek yuzingdan,
Telmurub qoldim o‘rtanib kul o‘ldim.
Qayrilib boqmading!

O‘tirdim, tutash sen uchun o‘yladim,
Sen uchun yig‘lab qo‘shuqlar so‘yladim.
Xaloskorim bildingmi?!

Tuproqlar kabi yiqildim yo‘linga,
Yugurdim itdek sog‘ingda-so‘linga.
M... sezdingmi?!

Quyosh singari yorub kelganingda,
Gul kabi kulub holim so‘rg‘oningda
Qip-qizil yoshdan ko‘zim to‘lmadimi?
Nechun bilmagansen?!
Nechun sezmagansen?!

“Ishtirokiyun” gazetasining 1919-yil 130-sonidan olindi.

QADRDON SIYMOLAR TURK KINOIJODKORLARI NIGOHIDA

Boshlanishi 1-sahifada

Bu borada Madaniyat vazirligi huzuridagi Kinematografiya agentligi tomonidan ham salmoqli ishlar qilinmoqda. Shuningdek, xorijiy kinokompaniyalar, telekanallar bilan ham bu yo‘nalishda hamkorlik yo‘lga qo‘yilmoqda. Jumladan, Turkiya davlat teleradiokompaniyasi (TRT) hamkorligida ko‘p qismli “Ziyorat: Oltin silsila” hujjatli filmi suratga olindi va Turkiya telekanallarida namoyish qilindi. Ushbu turkumda Bahouddin Naqshband, Xoja Abduxoliq G‘ijduvoniy, Xoja Ali Romitaniy, Anjir Fag‘naviy singari buyuk avliyo va mutafakkirlar hayoti, faoliyati, ma’naviy merosi va ziyoratgohlari haqida atroflicha ma’lumotlar berilgan.

Turkiya davlat teleradiokompaniyasiga qarashli “TRT-Avaz” telekanali 2021-yilda “Ildizlar izidan” turkumidan jadid bobolarimiz haqida hujjatli filmlarni suratga olgan. Yaqinda ana shu turkumga kirgan Munavvar qori Abdurashidxonov, Abdulhamid Cho‘lpon, Abdulla Qodiriy, Abdurauf Fitrat, Mahmudxo‘ja Behbudiy haqidagi filmlarni tomosha qildik.

Ta’kidlash joizki, bu filmlarning har biri rejissyor Erkan Bulbul boshchiligida alohida ilmiy va ijodiy yondashuv asosida, professional darajada suratga olingan. Film ssenariysi doktor Yakup O‘merog‘luga tegishli.

Filmning har beshala qismida deyarli bir xil olim va mutaxassislar, jumladan Shuayp Karakash, Orxan So‘ylemez, Fatma Achik, Yilmaz O‘zkaya singari turkiyalik tadqiqotchilar intervyu berishgan. Shuningdek, O‘zbekistondan borib, Turkiyada tahsil olayotgan, ilmiy izlanishlar bilan shug‘ullanayotgan Gulbahor Sattorova, Murod Xolmetov, Vohid Jalolov singari hamyurtlarimiz, afg‘onistonlik o‘zbek ziyolilari – Muhammad Sobir Korgar, Izzatulla Zeki va boshqalar ulug‘ jadidlarimiz haqidagi o‘z fikr-mulohazalarini bildirishgan.

Filmlarda badiiy sahnalarga keng o‘rin berilganligi tomoshabin e’tiborini o‘ziga jalb qiladi. Mualliflar Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon, Behbudiy, Fitrat va Munavvar qori siymolarini yosh aktyorlar ijrosida jonlantirishga harakat qilishgan. Albatta, bu filmlarda tarixiy shaxslarning real tashqi ko‘rinishiga mos qiyofalarni tanlashga jiddiy yondashishsa yaxshi bo‘lardi. Chamasi, Munavvar qori, Cho‘lpon va Qodiriyni ekranda qozoq yo qirg‘iz aktyorlari jonlantirgani ko‘rinadi. Ularning o‘rniga O‘zbekistondan aktyorlar taklif qilinsa yoxud Turkiyada faoliyat ko‘rsatayotgan o‘zbek yoshlari o‘rtasida tanlov o‘tkazilsa, filmlar yanada haqqoniy chiqqan bo‘lur edi.

Filmlarning asosan Turkiya hududida suratga olingani ko‘rinib turibdi. Suratga olish ishlarining bir qismi O‘zbekistonda amalga oshirilganida, yurtimizdagi jadidlar faoliyati bilan chuqur shug‘ullangan taniqli olimlarimiz bilan suhbatlashilsa, nur ustiga nur bo‘lardi.

Ammo, bu juz’iy kamchiliklarga qaramay, turkiyalik kinoijodkorlarning o‘zbek jadidlari hayotini yoritishga bo‘lgan bu intilishlarini yuqori baholash, imkon qadar filmlarni o‘zbek tiliga tarjima qilib, telekanallarimiz orqali namoyish etish lozim. Ushbu filmlarda ilmiy jihatdan u qadar katta yangiliklar bo‘lmasa-da, Turkiya jamoatchiligiga, yoshlarga ulug‘ ma’rifatparvarlar hayoti va jasoratini anglatishda, ularning ijodiy merosi bilan yaqinroq tanishtirishda, jadid bobolarimizga nisbatan turk ziyolilari, olimlarining nuqtai nazari bilan tanishishda yordam berishi mumkin.



Firdavs ABDUXOLIQOV,
Madaniyat vazirligi huzuridagi Kinematografiya agentligi direktori

Shuningdek, hozirgi vaqtda Turkiya Davlat teleradiokompaniyasi hamda O‘zbekiston Kinematografiya agentligi hamkorligida “Movarounnahr” loyihasi ustida muzokaralar olib borilyapti. Bu loyiha asosida qadim Movarounnahr tarixi, ko‘hna shaharlari va tarixiy obidalari, bu hududning dunyoga mashhur allomalari haqida birgalikda turkum filmlar tayyorlash ko‘zda tutilgan.

YURT QAYG‘USI

OLMON OLIMI TAN BERGAN EDI...

...1905-yil Berlinda “Turkistonga sayohat” nomli kattagina kitob chop qilinadi. Kitob muallifi Berlin universiteti professori Erik Zigmayer Chor Rusiyasi mustamlakasi bo‘lgan Turkistondagi bir qator shaharlar, shuningdek, Buxoro amirligi va Xiva xonligini kezib chiqqan va yo‘l taassurotlarini (suratlar bilan) qalamga olgan.

U Xiva xonligidagi Xonqa bekligida uch kun bo‘lgani, beklik hokimi — o‘ttiz yashar yigitning uyida havas qilgulik kutubxonasi borligi, hududda eski va yangi tizimdagi maktablar faoliyat yuritayotgani, paxta, ko‘nni qayta ishlovchi o‘nlab zavod va fabrikalar to‘xtovsiz ishlayotganini hayrat bilan ko‘rgan.



...Beklikdan Xivaga qaytayotgan davrini tasvirlarkan Erik Zigmayer shunday yozadi: “Biz ovrupaliklar sharqliklarga past nazar bilan qarashga odatlanganmiz. Dunyoqarashi, bilim va salohiyati jihatdan bugungi mezbon mehmonlardan ancha ustun edi...”

Rus olimi N.Likoshin o‘z xotiralarida Xonqa bekligi hokimining uyida qimmatbaho, noyob kitoblarga boy shaxsiy kutubxona borligi, Chor Rusiyasi markaziy shaharlari, shuningdek, Bog‘chasaroyda chop qilinadigan “Tarjumon” gazetasining deyarli barcha sonlari taxlamlari saqlanayotgani, uy egasi imoratini ovrupacha usulda qurganini e’tirof etgan.

Yana bir rus olimi A.Samoylovich o‘z xotiralarida bu insonning olti tilni bilishi, o‘z dunyoqarashi bo‘yicha boshqa xon amaldorlaridan tamomila ajralib turishini hayratla yozadi.

Yigirmanchi asrning birinchi choragida xonlik, so‘ng Xorazm Xalq Respublikasiga yo‘li tushgan ko‘pdan ko‘p sayyohlar, olimlar albatta Xonqaga bormay ortga qaytishmagan. Xonlikdagi eng katta beklikda hokim lavozimida ishlayotgan inson yevropa tillarini bilishi (ingliz, fransuz tillari) xorijliklarning el hayoti bilan yaqinroq tanishishlarida qo‘l kelgan.

Ko‘pdan ko‘p taniqli olimlar tan bergan bu inson kim?

U 1873-yil bahorida – Chor Rusiyasi xonlikni ilkiga kiritish uchun uch tomondan qo‘shin tortib kelayotgan kezlarda Amudaryoning o‘ng qirg‘og‘idagi Sho‘roxon bekligida dunyoga keladi. Otasi shu beklik hokimi vazifasida ishlayotgandi.

Avval eski maktabda, so‘ng Xivadagi Sherg‘ozixon madrasasida tahsil oladi. Petro-Aleksandrovsk (To‘rtko‘l) shahrida ish boshlagan rus-tuzem maktabining ilk yerlik o‘quvchilaridan biri bo‘ladi. (U bilan bir vaqtda Xivaning bo‘lg‘usi xoni – shahzoda Isfandiyor ham shu maktabda o‘qigan.)

Chor Rusiyasi va Fransiya hukumatlari o‘rtasida kelishuvga muvofiq 1892-yili vohadan bir guruh toliblar Yevropaga o‘qishga otlanadilar. Ular orasida yerlik xalq vakillari orasidan tanlab olingan 19 yashar yigit Fransiyaning Tuluza shahridagi irrigatsiya bilimgohida to‘rt yil o‘qiydi. Amaliyotni Turkiyaning Istanbul shahrida o‘taydi. Yozgi ta’il vaqtida muqaddas haj ziyoratini ado etishga ham muvaffaq bo‘ladi.

Yevropada suv ixtisosligi bo‘yicha saboq olgan ilk o‘zbek yigiti 1896–1900-yillarda To‘rtko‘ldagi daryo flotiliyasida kema darg‘alari tayyorlash kursiga boshchilik qiladi. O‘sha vaqtda vohadan chetga barcha yuklar daryo orqali tashilgan.

...1900-yili u – 27 yashar yigit xonlikning sanoat nisbatan rivojlangan, qadim hunarmandchilik g‘oyatda keng yoyilgan Xonqa bekligiga hokimlikka xon tomonidan tayinlanadi. U bu vazifada o‘n sakkiz yil ishlaydi. Ayni vaqtda 1912–1916-yillarda xonlikning bosh mirobi vazifasini o‘rindoshlik asosida bajarib, voha suv tarmoqlari tizimi mukammal ishlashidek savobli ishlarga bosh bo‘ladi.

Xivada xon hokimiyati tugatilgach, respublika e’lon qilinishiga jadidchilik g‘oyalari bilan sug‘orilgan “Yosh xivaliklar” tashkiloti a’zolari bosh bo‘lishadi.

“Yosh xivaliklar” tashkiloti yetakchilaridan biri Polvonniyoz hoji Yusupov o‘z xotiralarida xon amaldorlarini yomon ko‘rishini yashirib o‘tirmaydi. Lekin o‘sha amaldorlardan faqat bir shaxs haqida ijobiy fikrlar aytadi. O‘sha “ijobiy tavsiflangan” inson yangi tuzilgan Xorazm Xalq Respublikasida ziroat (qishloq xo‘jaligi) noziri vazifasiga tayinlanishi behudaga emas.

U keyinchalik Quyi Amudaryo mintaqasini suv bilan ta’minlovchi “Upradis” tashkilotining bosh muhandisi ham bo‘lib ishlaydi.

Yurtda ro‘y bergan yangilanishlar jarayonidagi xizmatlari uchun XXRning “Mehnat” ordeniga musharraf bo‘lgan, Moskva va Sankt-Peterburgda sho‘ro rahbarlari bilan o‘tkazilgan muzokaralarda qatnashgan, yangi respublika mustaqilligi uchun jon kuydirgan – bu ishi bilan boshini kundaga qo‘yayotganini yaxshi bilgan shaxs faoliyatida jadidchilikning barcha yutuq va kamchiliklarini uchratamiz.

Afsuski, shunday!

...Gap Muhammad hoji Aminaddin o‘g‘li haqida ketyapti.

...1934-yilda Quyi Amudaryo mintaqasida 400 ming gektar yerlarni o‘zlashtirish bo‘yicha loyiha ishlangan. Moskvalik olimlar tavsiyasiga ko‘ra ishlab chiqilgan loyiha mualliflari orasida yerlik millatdan yolg‘iz Muhammad hoji Aminaddin o‘g‘li bo‘lgan. Ayni shu loyiha muhokamasi vaqtida moskvalik akademik bilan tortishib qolishi, vohani ming yillarki suv bilan ta’minlab turgan arna, ariqlar o‘zanlarini o‘zgartirish, shu orqali go‘yo “qo‘shimcha yer maydonlari ochish” haqidagi ilmiy asossiz qarashlarga to‘g‘ridan to‘g‘ri qarshi chiqishi – o‘z davri uchun katta jasorat edi. Negaki, vohani misli qon tomirlari kabi chirmab olgan, qadim bobolar aqli salohiyati bilan qazilgan arna, ariqlarni yo‘q qilish qadim Xorazmni Qoraqumga yem qilib yuborish degani edi. Buni mirob sifatida u yaxshi bilardi – bobolar tajribasini o‘z gardanida necha marta sinab ko‘rgandi.

Bu jasorat unga qimmatga tushadi – voha suv ta’minoti uchun mas’ul idoradagi ikkinchi rahbarlik lavozimidan bo‘shatib, daryo ortidagi eng kichik qishloqqa mirob qilib yuborishadi.

1937-yil 18-oktyabr kuni To‘rtko‘l bozoriga borayotgan vaqtida enkevedi xodimlari tomonidan hibsga olinib, zudlik bilan Toshkentga jo‘natiladi.

“Xon amaldori” tamg‘asi ostida qatag‘on mashinasining qonli g‘ildiraklari ostiga tashlangan 65 yashar keksa mirob 1938-yil 18-fevralda Zangiotadagi “Tuyasaroy” qamoqxonasida vafot etgan va ulug‘ avliyo qo‘nimgohiga dafn qilingan.

Jadidchilik g‘oyalarini xonlikdagi amaldorlar yoqtirishmagan, kezi kelganda yangicha fikrlovchilarni qatag‘on ham qilishgan. Xiva xoni bosh vaziri Islomxo‘ja bundan mustasno. Bu inson bir asr ilgari chekka hududda – xonlikda taraqqiyparvar kuchlarni o‘z himoyasiga oladi, ularni qo‘llab-quvvatlaydi, maktablar, kasalxona, telegraf qurish kabi ishlarga boshchilik qiladi. Va ayni shu taraqqiyparvarligi uchun vaqt kelib kuyovi bo‘lmish xon amri bilan qirq yoshida vahshiylarcha o‘ldiriladi.

Islomxo‘ja va Muhammad hoji fikran yaqin insonlar bo‘lishgan. Buni har ikkisi eldosh – xonqalik bo‘lgani bilangina bog‘lash kabi fikrlardan chekinamiz. Ularni o‘zaro bog‘lagan narsa – dunyoda bo‘layotgan o‘zgarishlardan chetda qolgan xonlikni iqtisodiy, ma’naviy yuksaltirish, buning uchun avvalo ta’lim tizimini izchil yo‘lga qo‘yish, texnika taraqqiyoti yangiliklarini yurtga olib kelish, yoshlarni zamonaviy kasb-hunarlarga o‘qitish, asrlarki qotib qolgan bid’atlar, diniy mutaassiblikdan xalos bo‘lish. Eng asosiysi, yurtni ozod qilish – mustamlakachilik balosidan qutqarish! Ushbu fikrimizni u insonga qo‘yilgan ayblov tasdiqlaydi.

Qatag‘on davri hujjatidan iqtibos:

“...1937-yil 3-noyabrdagi “uchlik” tomonidan quyidagi mahbuslar 10 va 8 yilga qamoqqa hukm qilinganlar:

...240. Aminatdinov Hojiboy hokim – 1873-yilda tug‘ilgan. Xonqa rayonidan. Muqaddam quloqqa tortilgan. Xonqa hokimi bo‘lgan. Hibsga olingan vaqtda aniq mashg‘uloti bo‘lmagan. Aholi orasida aksilinqilobiy, mag‘lubiyatchilik targ‘iboti olib borganlikda ayblangan. 10 yil mehnat tuzatuv lageriga hukm qilingan. Jazo muddati 1937-yil 18-oktyabrdan hisoblangan. Qamoqxonada vafot etganligi uchun “ish” to‘xtatilgan”.

... Yurt obodchiligi, raiyat farovonligi uchun jon fido qilgan insonning nomi, mehnatlari istiqlol tufayli qadrini topdi, jadid bobomiz haqida roman-esse, dostonlar yaratildi, hujjatli kino ishlandi.

...Berlinlik dunyo kezgan professor Erik Zigmayer uch kunlik muloqoti davomida bu insonga behuda tan bermagan-da!

Ro‘zimboy HASAN,
O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi

XOTIRA AZIZ

(Boshlanishi o‘tgan sonda.)

Saidmurodov Ustanur – Saidmurodov Ustanur – Buxoro sektori taqdim qilgan 2339-sonli ish bo‘yicha otuvga hukm qilingan. 1878-yili tug‘ilgan, Buxoro shahridan. Buxoro Xalq sovet respublikasining sobiq moliya vaziri. “Sho‘roi Islom” tashkilotining a’zosi, so‘nggi vaqtlargacha millatchi, aksilinqilobiy “Milliy ittihod” tashkilotining a’zosi bo‘lgan. “Milliy ittihod” tashkilotining a’zosi sifatida uning rahbarlari bilan aloqada bo‘lganlikda va tashkilotning aloqalar bo‘yicha topshirig‘ini bajarib turganlikda ayblangan.

QATAG‘ON QURBONLARI

Nazarov Ochil – Buxoro sektori taqdim qilgan 2433-sonli ish bo‘yicha otuvga hukm qilingan. 1882-yili tug‘ilgan, Buxoro shahridan, sobiq quloq, savdogar, o‘tmishda amir amaldori, quloqqa tortilgan. Aksilinqilobiy, millatchi “Milliy ittihod” tashkilotining a’zosi sifatida aholi orasida millatchilik, aksilinqilobiy targ‘ibot olib borganlikda ayblangan.

Xo‘janiyozov To‘lagan – 1925-yili o‘g‘irlik va kamomad uchun O‘zSSR Ichki ishlar xalq komissarligi Davlat Xavfsizligi Boshqarmasi 4-bo‘lim taqdim qilgan 4544-sonli ish bo‘yicha 5 yil qamoqqa hukm etilgan. 1883-yili tug‘ilgan, Toshkent shahridan, eserlar partiyasi a’zosi, 1919-yili Toshkentda Osipov qo‘zg‘olonida ishtirok etgan. Hibsga olingan vaqtda aniq mashg‘uloti bo‘lmagan. “Milliy ittihod” va “Milliy istiqlol” tashkilotining a’zosi bo‘lib, doimiy ravishda aholi orasida aksilinqilobiy, millatchi targ‘ibot olib borganlikda, “Ravnaq ul-Islom” nomi ostida o‘zi yozgan aksilinqilobiy, millatchi she’rlar o‘qiganlikda ayblangan.

Valixo‘jayev Tursun – Jizzax rayon bo‘limi taqdim qilgan 4892-sonli ish bo‘yicha otuvga hukm qilingan. 1900-yili tug‘ilgan, Jizzax shahridan, ruhoniy, eshon oilasidan, o‘zi savdogar bo‘lgan. Aksilinqilobiy “Milliy ittihod” tashkilotining a’zosi, 1926-yildan VKP (b)ning sobiq a’zosi, 1937-yili “Milliy ittihod” aksilinqilobiy tashkiloti a’zosi sifatida partiyadan o‘chirilgan, hibsga olingan vaqtda mashg‘uloti aniq bo‘lmagan. “Milliy ittihod” tashkiloti topshirig‘i bo‘yicha 1992-yili militsiyaga ishga kirib, bosmachilarga qurol va ma’lumotlar berib turganlikda, aholi orasida millatchilik, mag‘lubiyatchilik targ‘iboti olib borganlikda, xalq dushmanlarini maqtaganlikda ayblangan.

Xo‘jayev Muhammadjon – Farg‘ona shahar bo‘limi taqdim qilgan 1726-sonli ish bo‘yicha otuvga hukm qilingan. 1898-yili tug‘ilgan, Qo‘qon shahridan, sobiq savdogar. “Milliy ittihod” tashkiloti a’zosi, 1931-yili aksilinqilobiy faoliyati uchun oliy jazoga hukm etilgan. Keyin 10 yil qamoq jazosiga o‘zgartirilgan. Hibsga olingan vaqtda do‘konda kassirlik qilgan. Aholi orasida aksilinqilobiy, millatchi targ‘ibot olib borganlikda ayblangan.

Sayfutdinov Sotiboldi – Qo‘qon shahar bo‘limi taqdim qilgan 1635-sonli ish bo‘yicha otuvga hukm qilingan. 1886-yili tug‘ilgan, Qo‘qon shahridan, savdogar o‘g‘li. 1917–1918-yillarda aksilinqilobiy, millatchi, “Sho‘roi Islom” tashkilotining a’zosi. Qo‘qon muxtoriyati hukumati davrida qurolli otryadlar tashkil etish ishlarini olib borgan. 1919-yildan “Milliy ittihod”ning a’zosi. 1927-yili 1 vagon pillani noqonuniy sotib yuborgani uchun 6 yil qamoqqa hukm etilgan. 1936-yili aksilinqilobiy faoliyati uchun qamoqqa olingan, hibsga olingan vaqtda qishloq do‘koni direktori bo‘lgan. Aholi orasida millatchilik targ‘iboti olib borganlikda, xalq dushmanlarini maqtaganlikda ayblangan.

Shokirov Mirzaxon Maxsum – Qo‘qon shahar bo‘limi taqdim qilgan 1678-sonli ish bo‘yicha otuvga hukm qilingan. 1888-yili tug‘ilgan, Qo‘qon shahridan, sobiq savdogar. 1918-yili “Sho‘roi Islom” tashkilotining a’zosi bo‘lgan. Qo‘qon muxtoriyati hukumati davrida otryadlar tashkil etishda ishtirok etgan. 1919-yilda “Taraqqiyparvar” tashkilotining a’zosi, quloq qilishdan qochib ketgan, hibsga olingan vaqtda hammomda qorovul bo‘lgan. Aholi orasida aksilinqilobiy millatchilik targ‘iboti olib borganlikda, SSSRdagi ocharchilik to‘g‘risida mish-mishlar tarqatganlikda ayblangan.

Qosimov Hoshim – 1882-yili tug‘ilgan, Kirov rayoni Hojibek qishlog‘idan quloqqa tortilgan. 1930-yili davlat majburiyatini bajarmagani uchun 3 yil qamoqqa hukm etilgan. Hibsga olingan vaqtda kooperatsiyada qorovul bo‘lgan. “Milliy ittihod”, “Sho‘roi Islom” aksilinqilobiy tashkilotlariga a’zo bo‘lganlikda, doimiy ravishda kolxozga qarshi targ‘ibot olib borganlikda, mag‘lubiyatchilikni tashviqot qilganlikda ayblangan.

G‘iyosov Sirojiddin – 3378-sonli ish bo‘yicha 10 yil mehnat tuzatuv lageriga hukm etilgan, jazo muddati 1937-yil 22-avgustdan hisoblangan. 1900-yili tug‘ilgan, Namangan shahridan, “Milliy ittihod” aksilinqilobiy guruhi a’zosi, hibsga olingan vaqtda O‘zbektorg do‘koni mudiri bo‘lgan. Aholi orasida doimiy ravishda isyonchilik, mag‘lubiyatchilik va aksilinqilobiy targ‘ibot olib borganlikda ayblangan.

Ahmad Qori Tojixo‘jayev – 3440-sonli ish bo‘yicha 10 yil mehnat tuzatuv lageriga hukm etilgan, jazo muddati 1937-yil 25-avgustdan hisoblangan. 1887-yili tug‘ilgan, Namangan shahridan, sobiq savdogar. O‘tmishda “Milliy ittihod” va “Nashri Maorif” millatchi aksilinqilobiy tashkiloti a’zosi, hibsga olingan vaqtda artel bo‘yoqchisi bo‘lgan. Aholi orasida doimiy ravishda millatchilik, mag‘lubiyatchilik aksilinqilobiy targ‘ibot olib borganlikda, terroristik kayfiyatda bo‘lganlikda ayblangan.

Mir Obid Maqsumov Hurmat – 4953-sonli ish bo‘yicha 10 yil mehnat va tuzatuv lageriga hukm etilgan, jazo muddati 1937-yil 3-sentyabrdan hisoblangan. 1885-yili tug‘ilgan, Namangan shahridan, sobiq savdogar, sudlangan. Hibsga olingan vaqtda Rayispolkomda ishchi, o‘tmishda sobiq politsiyachi va “Milliy ittihod” millatchi aksilinqilobiy tashkiloti a’zosi bo‘lgan. Atrofidagilar orasida aksilinqilobiy tuhmat targ‘iboti olib borganlikda, sovet hukumatiga qarshi kurashga chaqirganlikda, revolyutsiyadan oldingi tuzumni maqtaganlikda ayblangan.

Rustambek SHAMSUTDINOV,
tarix fanlari doktori, professor,
Nigoraxon AKBAROVA,
ilmiy xodim

(Davomi kelgusi sonda.)

HAJVIYA



Bu aroba...

(Ustozlar ohangida)

Shoshning o'n beshi qorong'u, o'n beshi yog'du bilan,
Umrini taksist "pitak"da o'tkazar orzu bilan.

To'qson ikki deb quyilgan benzining sakson axir,
Na ilojki, bu aroba yurmasa dog'suv bilan.

Odam-u avto dudidan bulg'anib ketdi havo,
Chekvol! Og'uning shifosi deydilar og'u bilan.

Barcha zahr o'pkamga to'lsin, dud-g'ubor ho'plab yashay!
Baribir, ko'pga borolmam ishq degan qayg'u bilan.

Qor yog'ar – dardim davosi, poklanar iplos havo,
Bul nafasni ahli g'aflat o'tkazar uyqu bilan.

Uyquni ko'zdan quvib, gazni bosibmanki chunon,
Hem minitda yuzlashibman O'rda-yu Chorsu bilan.

Vo darig', chiqsun ko'zim, Boymat ila ko'rdum sani,
Kim ko'ribdur topganin baxt hangini ohu bilan?!

Qor-u yomg'irda yugursam, telbamu deb o'ylama,
Taksiching mashg'uldurur, yor, ayni payt kung-fu bilan.

Taksichi №1 – Akbarali MIRZO



Husan SODIQOV chizgan rasmlar.

BADNOM BO'LISHGA BO'LDIK...

Xotinim qosh qo'yaman deb ko'z chiqarishga usta. Agar shu orqali daromad qilish mumkin bo'lganida, bizning oilaga yetadigani bo'lmasdi-ya!..

Afsuski, hozircha bu hunari ortidan quruq dilxiraliklar kelgani-kelgan. Yana desangiz, bundan faqat yaqinlar aziyat chekishadi. Begonalarga qilganidayam mayliydi. Buning sababi shuki, u haddan ziyod insonparvar. Qiynalayotgan erkaklarning, ayniqsa, mast-alastlarning yonidan beparvo o'tib ketolmaydi. Yotgan joyidan turishiga yordam beradi, yonida puli bo'lmasa, yo'lkirasini to'lavoradi. Ammo g'irt mast odamni kim ham mashinasiga mindirardi.

Bir kuni to'y bahona restoran oldida yig'ilishib tursak, xotin telefon qilib qoldi:

– Dadasi, Turdiqulga telefon qiling, kelib pochchasini olib ketsin. Bozordagi moshinpitakda mast holda yotipti.

Xotinimning qarindoshi bo'lmish Turdiqul televideniyeda, Toshkentda ishlasa, mast pochchasi uchun Bekobodga kelmaydi-yu!

– Yanglishmayapsanmi? Turdiqulning pochchasini taniysanmi o'zi?

– Xudoga shukr, ko'zdan qolganim yo'q. Puliyam yo'q ekan, o'zim to'lavordim-u, birorta haydovchi mindirishga ko'nmayapti.

– Turdiqul ishda-yu, Toshkentda.

– Bo'lmasa, xotiniga telefon qiling, qaynopasinikiga xabar qilsin, bolalari kelib olib ketishadi. Men bir chekkaga o'tqazib qo'ydim, o'zini bilmaydi.

Turdiqulning xotiniga qo'ng'iroq qilib, pochchalari mastligi, bolalari kelib olib ketishlarini tayinladim.

Savob ishga hissa qo'shganimdan ko'nglim to'lib, endi to'yxonaga kirayotgandim yana qo'ng'iroq bo'ldi.

– Ish hal bo'ldi, dadasi, bitta insofli shopirga o'n ming so'm to'lavordim, bir o'zini olib ketdi. Turdiquldan undirarsiz. Anovilarni tinchlantirib qo'ying, tag'in kelib ovora bo'lib yotishmasin.

Oradan ikki-uch kun o'tib, ko'chada o'sha pochcha bilan yuzma-yuz kelib qoldik. Mendan besh yoshlar kichik pochchani xijolatga solmaslik uchun o'zimni ko'rmaganga olib o'tib ketmoqchi edimu, o'zi to'g'ri ustimga bostirib kelaverdi. Chamasi, xotinim ko'rsatgan yordami uchun rahmat aytib, to'langan yo'lkirani qaytarmoqchi bo'lsa kerak.

– Akajon, kechirasiz-u, xotiningiz meni taniydimi o'zi?! – dedi pochcha qo'limni mahkam siqib ko'risharkan.

– Men qaydan bilay? Qarindosh-urug' bo'lsanglar, oralaringda bitta begona o'zim.

– Akajon, men ichishni tashlavorganimgayam o'n besh yil bo'ldi. Besh vaqt namoz o'qiyman, masjidga qatnayman. Kennoyim meni mast holimda mashinaga mindirvorganmish?

– Ie, o'sha sizmasmidingiz?

– Albatta, menmas-da! O'sha paytda zavodda smenada bo'lganman.

– Ie, unda kimni mashinaga solvorgan?

– Men qaydan bilay? Xotinim o'g'limni dadangni borib olib kel deb, chiqarvorgandan keyin, bir shopir g'irt bir mast odam uyimizga olib kelibdi. Xotinim: bu mening xo'jayinimmas, erimni nima kildinglar, deb qo'rqib ketibdi. Buni qayerdan topgan bo'lsangiz o'shaqqa oborib tashang, depti xotinim. "Pulini kim to'laydi, – depti shopir. – Mana shetga tashlab ketaman, o'zimniyam jonimga tegib ketdi", depti. Oxiri, xotinim pul berib, jo'natvoribdi. Kennoyimga ayting, bunaqa tuhmat qilmasin. Xotinim bilan qancha aytishdik.

Uyga kelgach, xotindan surishtirdim:

– Xotin, sen anovi pochchani yaxshi taniysanmi o'zi?!

– Tanimay nima. Qarindosh bo'lsa...

– O'zi necha marta ko'rgansan uni?

– Bunaqa mijinglashingizni bilganimda sanab yurardim. Tinchlikmi?

– O'sha kuni boshqa odamni uylariga jo'natvorgan ekansan posilka qilib.

– Hecham-da! O'ppa-o'zi edi Endi tan olmayaptimi? Or qilayotgandir-da. Ichishni bilgan, tan olishniyam bilishi kerak-da. O'zi bularga yaxshilik qilgan men ahmoq! Pulni so'radingizmi?

– Qanday so'rayman. Qaytaga yetkazilgan ma'naviy zarar uchun bizni sudga bermaganiga xursand bo'laver.

– Nima-a? Shu pulni bermaslik uchun er-xotin gapni bir joyga qo'ygan. O'zi odamlarga yaxshilik yoqmaydi...

Shu bilan xotinim odamlarga yana nimalar yoqmasligi haqida nutq irod qildi va har doimgi xulosasini takrorladi: erkaklarning bari bir go'r.

Shu payt Turdiqul: "Ustozjon, sizni bir ko'rib o'tay deb, besh minutga kirdim", deya bosh suqdi va xotinim uning pochchasi hamda opasining asl basharalarini ochib tashladi. Sho'rlik Turdiqul qarindoshining chakagini o'chirish uchun yo'lkirani ikki barobar to'lagancha quyonning rasmini chizdi...

... O'sha pochcha bilan ko'cha-ko'yda uchrashib qolsak qarindoshi – xotinimni so'rab qo'yadi. Men ham hazillashaman:

– Sizam uncha-muncha olib turibsizmi?

– Nachora?... Badnom bo'lishga bo'ldik-ku, akajon. Xa-xa-xaaaa...

Olloyor BEGALIEV



Jadid
adabiy, ilmiy-ma'rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta

Muassislar:

O'ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI

RESPUBLIKA MA'NAVIYAT VA MA'RIFAT MARKAZI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI

MILLIY MASS-MEDIANI QO'LLAB-QUVVATLASH VA RIVOJLANTIRISH JAMOAT FONDI

"SHAHIDLAR XOTIRASI" JAMOAT FONDI

Bosh muharrir:
Iqbol Mirzo

Bosh muharrirning birinchi o'rinbosari:
Humoyun Akbarov

Navbatchi muharrir:
Gulchehra Umarova

Sahifalovchi:
Erkin Yodgorov
Nigora Tosheva

Muallif fikri tahririyat nuqtai nazaridan farqlanishi mumkin.

Gazeta 2023-yil 26-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 195115 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Kirill yozuvidagi adadi – 4507
Lotin yozuvidagi adadi – 11831
Buyurtma: G – 140.
Hajmi: 4 bosma taboq, A2.
Nashr ko'rsatkichi – 222.
Tashkilotlar uchun – 223.
1 2 3 4 5 6



Manzilimiz:
Toshkent shahri,
Shayxontohur tumani,
Navoiy ko'chasi, 69-uy
Telefonlar:
Qabulxona: (71) 203-24-20
Devonxona: (97) 745-03-69
jadidgzt@mail.ru (71) 203-24-17

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi.
Bosmaxona manzili:
Toshkent shahri,
Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.

Bosishga topshirish vaqti: 21:00
Bosishga topshirildi: 19:00
Sotuvda narxi erkin.

TILBILIM

"TA'QIQLASH"NI TAQIQLASH

"Taqiq" so'zini "ta'qiq" deb xato yozish hollari ko'p uchraydi. Xo'sh, nega "ta'qiq" deb yozib bo'lmaydi?

Aslida, ayirish yoki tutuq belgisi (" ' ") hech qanday tovushga ega emas, sof turkiy-o'zbekcha so'zlarda umuman ishlatilmaydi, undan faqat arab va boshqa tillardan o'zlashgan so'zlarni yozishda foydalanamiz. Arabiy so'zlarda " ʾayn" ("ع") tovushi, "hamza" ("ء") yoki "sukun" belgilari ishtirok etsa, ularni o'zbek tilida " ' " bilan ifodalaymiz, misol: qat'iy قَطْعِيّ, mas'ul مَسْؤُول, "ta'qib" تَعْقِيب... Ya'ni, " ' " bilan yoziladigan so'zlarimizning hammasi o'zlashgan so'zlardir.

Demak, shu kichik belgi ham, garchi tovush bildirmasa-da, so'zning etimologiyasi bilan bog'liq muhim ma'no tashirkan. "Taqiq"ni ham agar "ta'qiq" deb yozsak, uning ildizlarini boshqa til, xususan, arab tilidan izlashimizga to'g'ri keladi. Keling, izlab ko'ramiz.

1981-yili chop etilgan "O'zbek tilining izohli lug'ati"da "TAQIQ" so'zi arabcha yoki boshqa tildan o'zlashgan, deb aytilmagan. Bu esa so'zning boshqa tildan o'zlashmagan, sof o'zbekcha ekanligini yoki, kamdan kam hollarda, olimlar so'z etimologiyasini aniqlay olmaganini bildiradi.

2006–2008-yillarda o'zbek tilining yangi, to'ldirilgan besh jildli izohli lug'ati chop etildi. Deylik, 1981-yil izohli lug'atida 60 ming so'z va so'z birikmalari bo'lsa, keyingisida ularning soni – 80 mingta. Yangi nashrda ko'pgina so'z va ularning izohlari eski lug'atdan o'zgarishsiz aynan ko'chirilgan, faqat ba'zilari biroz tahrir qilingan.

Shunday tahrirga uchragan so'zlardan biri – TAQIQ, yuqorida ta'kidlaganimizdek, eski izohli lug'atda bu so'z arab yoki boshqa tildan o'zlashgan deyilmagan, ya'ni sof o'zbekcha so'z sifatida izohlangan, yangi lug'atda esa uning arab tilidan o'zlashganligi aytiladi va unga arabcha تعقيق shakli keltiriladi. Agar chindan ham "taqiq" arabcha bo'lsa-yu "ta'qib" (تَعْقِيب) singari sukunli "ayn" bilan yozilsa, uni ham "taqiq" emas, "ta'qiq" deb yozsak to'g'ri bo'lmaydimi? Mana, yangi lug'atda keltirilgan o'sha izoh: "TAQIQ [a. تعقيق – uzish, to'xtatish, quloq solmaslik, bo'ysunmaslik] man, qatag'on" (O'TIL.T.2008.V.37-bet).

Xo'sh, bu so'z arabcha bo'lsa, qaysi fe'ldan yasalgan? Arablar ham uni ishlatishadimi? Shu kabi savollarga javob izlab kamina arabcha lug'at va matnlarda izlanish olib bordim. Lekin hech bir arabcha lug'at yoki matnda taqiq yoki ta'qiq (تعقيق) so'zini uchratmadim. Arab tili grammatikasi qoidalariga ko'ra, bu so'z arabcha عَقّ ("'aqqa") fe'lidan yasalgan bo'lishi mumkin. "'aqqa" (عَقّ) fe'li chindan ham lug'atda: "uzish, kesish, quloq solmaslik, bo'ysunmaslik" kabi ma'nolarni bildiradi, lekin undan "ta'qiq" (تعقيق) masdari yasalganligi biron-bir manbada keltirilmagan (Qarang:ARS.X.K.Baranov.M.1989.522-526).

Arablarning o'zlari "taqiq" ma'nosida "man" (عَنْم) va boshqa so'zlardan foydalanishadi, "ta'qiq" desangiz tushunishmaydi. Agar bu so'z arab tilidan o'zlashgan bo'lsa, bizdan oldin forslarda bo'lishi kerak edi, har holda Islom olamida fors tili arab tilidan keyingi o'rinda turgan, ammo fors tilida ham bunday so'z mavjud emas. Shuningdek, "taqiq" so'zi Navoiy yoki boshqa mumtoz adabiyotimiz vakillari asarlarida ham uchramaydi.

Alqissa, "taqiq" so'zi arabcha etimologiyaga ega emas, balki yaqin o'tmishda sof o'zbekcha "taqmoq" fe'lidan "taq+iq" shaklida yasalgan so'zdir. "Taqmoq" fe'lining "bog'lamoq", "chatmoq", "to'g'namoq" kabi ma'nolari ham bor. Deylik, "taqiq qo'yildi" – "bog'lab qo'yildi", "chek qo'yildi"... Shu bois bu so'zni o'tgan asr davomida ota-bobolarimiz "ta'qiq" emas, "TAQIQ" deb yozib kelishgan. O'z so'zimizni "ta'qiq" (تعقيق), deb xato yozib arabchaga chiqarmaylik.

Abduvohid HAYIT